

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI
O‘ZBEK FILOLOGIYASI FAKULTETI
HOZIRGI ZAMON O‘ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI
SHUKUR XOLMIRZAYEV HIKOYALARIDA BOLA
OBRAZI TALQINI MAVZUSIDA
BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

f.f.n.Davronova M.

Bajaruvchi:

Sonniboyeva G.

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

O‘zbek filologiyasi fakulteti

Hozirgi zamon o‘zbek adabiyoti kafedrası

Sonniboyeva Gulnoza

Shukur Xolmirzayev hikoyalarida bola obrazi talqini

5220100 – Filologiya(o‘zbek filologiyasi) bakalavriat ta’lim yo‘nalishi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

f.f.n.Davronova M.

Bajaruvchi:

Sonniboyeva G.

Bitiruv malakaviy ishi Hozirgi zamon o‘zbek adabiyoti kafedrasining 2013 yil ____ majlisida muhokama qilindi va YaDAKga himoya uchun tavsiya etildi (11-son bayonnoma).

Kafedra mudiri:

dots. Nosirov A

Bitiruv malakaviy ishi YaDAKning 2013 yil ____ iyundagi majlisida himoya qilindi va ____ ball bilan baholandi (____-son bayonnoma).

YaDAK raisi

prof. _____

A’zolari:

Samarqand 2013

REJA:

Kirish

I BOB. Shukur Xolmirzayev ijodi va o`zbek adabiyoti

II BOB. Adib hikoyalarida bola ruhiyati

Xulosa

Adabiyotlar ro`yxati

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Yurtimizda mustaqillik qo`lga kiritilgach, barcha sohalarda katta o`zgarishlar sodir bo`ldi. Jumladan, o`zbek adabiyoti ham bir qancha imkoniyatlarni, qulayliklarni qo`lga kiritdi. Shulardan eng birinchisi ijod erkinligidir. Endi badiiy ijodda man etilgan mavzularga barham berildi. Ijodkorlar istagan mavzusida o`z xohishi bilan asarlar yozish huquqiga ega bo`ldi. O`zbek adabiyotshunosligida ham ana shunday erkinliklar qo`lga kiritildi. Adabiy me`rosga, qadimiy qadriyatlarga munosabat o`zgardi. Ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan barcha madaniy yodgorliklar yana xalqimizning ma`naviyatini ko`tarishda qo`llana boshladi.

Shunday yozuvchilardan biri, o`zbek adabiyotining yirik vakili Shukur Xolmirzayev sanaladi. Shukur Xolmirzayev XX asrning 70-yillarida o`zbek adabiyotiga kirib keldi. Yozuvchi hikoya janrida ijod qilib o`zbek kitobxoniga tanildi. Biroq uning ijodi adabiyotshunoslik nigohidan chetda qoldi. Mustaqillik davriga kelibgina u adabiyotshunoslikda o`rganildi. Ammo hikoyalaridagi bola obrazi ruhiyati to`liq tahlil etilgani yo`q. Bu esa **mavzuning dolzarbligini belgilaydi.**

Yozuvchi asarlari bugungi komil insonni tarbiyalashda ham katta ahamiyat kasb etadi. “O`zbek xalqining tarixiy o`tmishi,- deydi, Prezidentimiz Islom Karimov,- o`zligi, ma`naviyati haqida gapirayotganda, bizda chuqur ilmiy asosga tayangan tahlil, muayyan masalalarda aniq yondashuv yetishmayapti. Ilmiy tilda aytganda, yaxlit konsepsiya yo`q. O`zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi, isbotlab bo`lmagan ushbu haqiqat davlat siyosati darajasiga ko`tarilishi zarur... Faqat bahs, munozara, tahlil mevasi bo`lgan xulosalargina bizga to`g`ri yo`l ko`rsatishi mumkin”.¹

Tadqiqotning maqsad va vazifasi. Biz yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib, asosan, ishni quyidagi yo`nalishlarda olib borishga harakat qildik:

¹ Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. Тошкент, Шарқ, 1998.6-б.

- Shukur Xolmirzayevning ijodiy yo`li o`zbek adabiyotida o`ziga xos o`ringa ega ekanligini ko`rsatish;
- yozuvchining hikoyalari bolalar ruhiyatini nozik chizgilar bilan aks ettirilganini tahlil qilish;
- yozuvchi hikoyalari mustaqillik davri o`zbek adabiyotshunosligida haqiqiy bahosini olganligini ko`rsatib berishni va boshqalar.

Umuman, ishning maqsadi yozuvchi hikoyalari bola obrazining ahamiyati va tutgan o`rnini aniqlashdan iboratdir.

Tadqiqot obyekti. O`zbek adabiyotida o`zining salmoqli o`rniga ega bo`lgan yozuvchi Shukur Xolmirzayev ijodi, ayniqsa, uning o`zida qiyin bir davrni aks ettira olgan hikoyalari haqida o`zbek adabiyotshunosligida qilingan ilmiy tadqiqotlar ushbu ishning asosiy tadqiqot obyekti qilib olindi. Yozuvchi ijodi mustaqillikgacha deyarli o`rganilmanligi sababli imkon qadar hikoyalar tahliliga etibor berdik.

Mavzuning ishlab chiqilish darajasi. Yozuvchi asarlari mustaqillikgacha davrda ba`zi sabablarga ko`ra adabiyotshunoslar tomonidan o`rganilmay qolgan edi. Mustaqillikka erishilgandan so`ng barcha sohalarda bo`lgan yangilanishlar kabi o`zbek adabiyotida ham birmuncha o`zgarishlar bo`ldi. O`rganilmay qolgan asarlar o`rganila boshladi. Jumladan, yozuvchi Shukur Xolmirzayev asarlariga ham adabiyotshunoslar e`tibor qarata boshladilar. Jumladan, S. Mirzayevning “XX asr o`zbek adabiyoti”, Sobir Mirvaliyevning “O`zbek adiblari” asarlarida yozuvchi ijodiga etibor qaratilgan S. Xolmirzayevaning tashabbusi bilan yozuvchi hikoyalari u tomonidan nashr etildi. Sh.Doniyorova esa adib hikoyalari asosida ilmiy tadqiqot ishini yaratdi. Biroq bu ishlar Shukur Xolmirzayev hikoyalaridagi bola ruhiyatini to`liq ochib bera olmaydi.

Ishning ilmiy yangiligi. Ma`lumki, Shukur Xolmirzayev ijodi mustaqillikning ilk kunlaridan o`rganila boshladi. Yozuvchining asarlarida, ayniqsa, hikoyalari o`sha davr muhiti o`z aksini topganiligi bois bu asarlar o`z vaqtida o`rganilmay qolgan. Ammo mustaqillik davriga kelib yozuvchining asarlari haqiqiy bahosini oldi. Uning ochilmagan turli qirralari tanqidchilik tomonidan ochib berildi. Biz uchbu

ishimizda ana shularni tahlil qilishga harakat qilamiz. Ishning ilmiy yangiligi adib hikoyalaridagi bola obrazi ruhiyati birinchi marotaba malakaviy bitiruv ishi doirasida o`rganilmoqda.

Tadqiqotning metodologik asosi va tadqiqot usuli. Mustaqillik mafkurasi, Prezident I. A. Karimovning asarlari (ayniqsa, “Yuksak ma`naviyat-yengilmas kuch” asari), adabiyotshunoslikning adabiyot va san`at haqidagi fikrlari, hikoya nazariyasi bilan bog`liq ayrim asarlar bakalavrluk ishining metodologik asosi hisoblanadi. Ishda fikrlarni isbotlash va tasdiqlash maqsadida Izzat Sulton, Matyoqub Qo`shjonov, Hotam Umurov, Umarali Normatov, Abdug`ofur Rasulov, Baxtiyor Nazarov, Ibrohim Mirzayev kabi olimlarimizning ilmiy izlanishlariga tayanib ish ko`riladi.

Ishning nazariy va amaliy ahamiyati. Malakaviy bitiruv ishining umumlashmalari va xulosalaridan hozirgi zamon o`zbek adabiyoti va adabiy tanqid tarixi bo`yicha mashg`ulotlar, romanchilik va tanqidchilik bo`yicha tanlanma fanlarda foydalanish mumkin. Ayniqsa, maktablarda va oliy o`quv yurtlarida Shukur Xolmirzayev ijodini o`rganishda ushbu malakaviy bitiruv ishining materialli asqotishi shubhasiz.

Tadqiqotning joriy etilishi. Malakaviy bitiruv ishi SamDU o`zbek filologiyasi fakulteti “Hozirgi zamon o`zbek adabiyoti” kafedrasida tayyorlandi. Mazkur ish mavzusi bo`yicha ilmiy to`plamlarda maqolalar e`lon qilingan. Materiallarning ilmiy-an`anaviy anjumanlarda ma`ruzalar bilan chiqish qilingan.

Tadqiqotning hajmi va tuzilishi. Malakaviy bitiruv ishi kirish, ikki asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat.

I bob. Sh. Xolmirzayev ijodi va O`zbek adabiyoti

(O`zbek adabiyotiga kirib kelishi hikoyachilikdagi o`rni, ijodining o`rganilishi)

XX asr o`zbek adabiyoti tarixi o`zidan oldingi davrlar adabiyotidan keskin farq qiladi. Qadimda, asosan, sharq adabiyoti bilan aloqada bo`lgan o`zbek adabiyoti bu davrga kelib jahonning qarib barcha xalqlari adabiyoti bilan muhim aloqalar o`rnatdi. Bugungi globallashuv davrida adabiyotimiz aloqalari yanada kuchaydi.

Hozirgi zamon o`zbek adabiyotining o`sib bugungi darajaga kelishi oson kechgan jarayon emas. Adabiyotimiz yangilanish jarayonida ko`pgina talofatlarga, qurbonlarga duch keldi. Asr boshlarida dastlab jadidlar jamiyati qayta qurish uchun kurash olib bordilar.

Bu kurashda adabiyot ularga asosiy qurollardan biri bo`lib xizmat qildi. Shuning uchun asosan ishq muhabbatni kuylovchi mumtoz adabiyot o`rniga ijtimoiy masalarni birinchi o`ringa qo`yuvchi yangi adabiyot paydo bo`ldi. Bu dastlab ma`rifatparvarlik adabiyoti tarzida namoyon bo`lib, asta-sekin o`sib realistik adabiyot darajasiga ko`tarildi. O`zbek adabiyoti XX asrda janrlar rang-barangligi bilan ajralib turadi. Jumladan, romanchilik, dramaturgiya, hikoya va qissa kabi janrlarda ko`plab asarlar yaratildi.

“Umuman olganda insoniyat tarixi ma`naviyat-insonning, xalqning jamiyat va davlatning buyuk boyligi va kuch-qudrat manbai ekanini, bu hayotda ma`naviyatsiz hech qachon odamiylik va mehr-oqibat, baxt-saodat bo`lmasligini yaqqol tasdiqlaydi.

O`ylaymanki, yer yuzida qancha inson, qancha taqdir bo`lsa, har birining o`z ma`naviy olami bor. Ma`naviyatni tushunish, anglash uchun avvalo insonni tushunish, anglash kerak. Shuning uchun ham o`zligini, insoniy qadr-qimmatini anglab yetgan har qanday odam bu haqda o`ylamasdan yashashini tasavvur qilish qiyin”.²

² Каримов И. А. Юксак маънавият-енгилмас куч. Тошкент, Маънавият, 2008, 29-бет.

XX asr o'zbek adabiyotining rivojlanishiga Hamza, Fitrat, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor, Said Ahmad, Odil Yoqubov, Shukur Xolmirzayev, Abdulla Oripov singarilarning hissasi katta bo'ldi.

Ma'lumki, Shukur Xolmirzayev o'zbek adabiyotining hikoyachilik janrida salmoqli ijod qilgan yozuvchilardandir. U adabiyotimizga hikoyalari bilan kirib kelgan, keyinchalik esa ramonchilikka ham qo'l urgan.

Zamonaviy o'zbek nasrining zabardast vakillaridan biri Shukur Fayzullo o'g'li Xolmirzayev 1940-yil 24-martda Surxandaryo viloyati Boysun tumanida dunyoga keladi. Otasi asli Bulung'urlik bo'lib, 1937-1938-yillarda Boysunga ketishga majbur bo'lgan. Shukur Boysundagi o'rta maktabni tugatib, 1957-1962-yillarda ToshDUning filologiya fakultetida o'qiydi. Shundan so'ng u Toshkentdagi bir qator nashriyot, gazeta va jurnallarda mehnat qiladi. Shukur Xolmirzayev buyuk aktyor Shukur Burxonov rahbarligida tashkil etilgan to'garakda Gamlet rolini o'ynagan, Ofeliya rolini o'ynagan Saida ismli qizga uylangan. Adib Shukur Burxonov haqida hujjatli esse, Matyoqub Qo'shjonov haqida "U ustoz — men shogird" nomli hujjatli qissa yozgan. Adibning birinchi qissasi "Oq otli" (1962) deb, birinchi hikoyasi "Xatarli so'qmoqda" deb nomlangan. Shukur Xolmirzayev yozuvchilar uyushmasining "Oybek" mukofoti, O'zbekiston Davlat mukofoti sovrindori, "O'zbekiston xalq yozuvchisi"dir (1991). Asarlari: "Tog'lar orasida" (uning kitob holidagi nomi "Oq otli" 1962, birinchi qissasi), "To'lqinlar" (uning kitob holidagi nomi "Bukri tol" 1963). Bu qissani Shukur Xolmirzayev talabalik yillari yozgan va u Abdulla Qahhorning tabrigiga sazovor bo'lgan. Unda muallif muhit va sharoit tasviriga yetarlicha e'tibor bermagan, "O'n sakkizga kirmagan kim bor?" (1964, "yoshlar haqida qissa" deb ta'riflangan), "Bulut to'sgan oy" (1997) kabi qissalari, "So'nggi bekat" (1976, adibning roman janridagi dastlabki asari), "Qil ko'prik", "Yo'lovchi" (1987), "Olabo'ji" (1991), "Dinozavr" (1996, asar qahramonlari: Mahkam, Jamoliddin, Shaxlo, Abzal, Toirov va boshq.) kabi romanlari, "Yovvoyi gul", "Bahor o'tdi", "Bitiktosh", "Yashil "Niva"", "Ozodlik", "Hayot abadiy", "Og'ir tosh ko'chsa", "Ustoz", "Ko'k dengiz", "Tabassum" (1984), "Bodom qishda gulladi"

(1985), “Shudring tushgan bedazor”, “Qadimda bo'lgan ekan”, “Quyoshku falakda kezib yuribdi” (bu hikoya ma'lum ma'noda “Dinozavr” asari eskizidir), “Navroz, navro'z” (asar qahramonlari: Sulton, Obid Odiljonovich, Joniql Jondorov), “Xumor” (hikoyada bir millat, bir mamlakatning ma'lum bir bosqichdagi fojiasi kichik bir qahramon timsolida o'z xarakterini o'zi ochish yo'sinida yoritilgan), “Zov ostida adashuv” (“Hayvonlarni, jonivorlarni o'z nomlari bilan atashmaydi, masalan, polvon — ayiq, arg'amchi — ilon, jondor — bo'ri” deyilgan) kabi hikoyalari, “Taqrir bashorati” (1968), “Yo'llar, yo'ldoshlar” (1973), “Yur, tog'larga ketamiz” (1976), “Cho'loq turna” (1978), “Tuproq ko'chalar” (1978), “Qush tili” (1982), “Qahramonning so'nggi kunlari” (1984), “Tog'larga qor tushdi” (1986), “Abdulla Nabi o'g'lining so'nggi kunlari” (1983), “Esiz, Eshniyoz” (1988) kabi hikoya va qissalari, “Qora kema”, “O'zbeklar”, “Qariya” (bu hikoyada bozor kunlarida jarchilik qilib mol egasidan cho'tal oladigan, sholi yetishtiruvchi koreyslarga qish kunlarida laqqa cho'g' yetkazib beradigan, pishiqchilik mahalida bozordagi qovun-tarvuz po'choqlarini chelakka yig'ib yuradigan Qo'ziboy chol obrazi berilgan) va boshqalar.³

Shukur Xolmirzayev o'zbek hikoyachilik san'atining ustози Abdulla Qahhordan keyin yangi, yuqori bosqichga ko'targan yozuvchilardan biridir. Uning hikoya, qissa va romanlari tesha tegmagan voqealarga bag'ishlanganligi, xarakterlarga boyligi bilan ajralib turadi⁴.

Yozuvchi ijodining o'ziga xosligi ayni paytda ijodiy jarayonning o'ziga xosligini belgilaydi. Ijodiy jarayon har bir yozuvchida o'ziga xos tarzda kechadi. Mustaqil uslubiga, individual ovozigaga ega ijodkor qanchalik ko'p bo'lsa, individual ijodiy jarayon ham shuncha rang-barang bo'ladi.

Shukur Xolmirzayev ijodi hozirgi zamon o'zbek adabiyotining yorqin va mazmundor sahifalaridan birini tashkil etadi. Ko'p qirrali iste'dod sohibi Shukur Xolmirzayev adabiyotning turli janrlarida rang-barang badiiy asarlar yaratib, o'zbek

³ www.ziyo.uz

⁴ Мирвалиев С., Шокирова Р., Ўзбек адиблари. Тошкент, Фан, 2007-йил, 174-бет.

adabiyoti xazinasini boyitgan. Adib o`zining rang-barang hikoyalari, publisistik maqolalari, tarixiy esselari, realistik qissalari-yu ajoyib romanlari bilan hozirgi zamon adabiyotida munosib o`rin egallaydi.

Yozuvchi Shukur Xolmirzayev hozirgi o`zbek adabiyotida o`z ovozigga, uslubiga ega bo`lgan ijodkorlardan hisoblanadi. U adabiyotimizga 1962-yil “Oq otli” povesti bilan kirib keldi. Povest bolalar uchun yozilgan bo`lib, unda yoshlarning o`ziga xos orzu o`ylari va hayotga qarashlari aks etgan.

Sh. Xolmirzayev mazkur povestini e`lon qildirgandan so`ng o`tgan o`ttiz yildan ziyodroq davr ichida juda ko`plab hikoyalar, bir qancha qissa va romanlar yozdi.

Yozuvchi Sh. Xolmirzayev hikoyanavis sifatida qaysi mavzuni qalamga olmasin, qandaydir muhim, salmoqdor ijtimoiy fikrni ifodalashga intiladi. Uning bu xususiyatlari, ayniqsa, keyingi yillarda yaratilgan “Shudring tushgan bedazor”, “Cho`loq turna”, “Podachi”, “Ko`k dengiz”, “Xorun ar-Rashid”, “Qadimda bo`lgan ekan”, “Tabassum”, “Ustoz”, “Farzand” kabi hikoyalarida yaqqol namoyon bo`lgan. Sh.Xolmirzayev hikoyalarida, asosan, Surxon vohasining kaloriti yorqin sezilib turadi. Yozuvchining hikoyalarida surxondaryoliklarning o`ziga xosligi, yorqin va katta xarakterlari, yashash tarzi yaqqol ko`zga tashlanib turadi. Uning “Arpali qishlog`ida”, “Olis yulduz ostida”, “Miltiq otildi”, “Kimsasiz hovli”, “Ov” kabi hikoyalari, “So`nggi bekat”, “Qil ko`prik”, “Olabo`ji” romanlarida bu koloritni aniq sezish mumkin. To`g`ri, yozuvchi Shukur Xolmirzayev dastlabki ijodiy qadamlaridanoq “o`zligini”, o`z uslubini topib olgani yo`q. U tinimsiz izlanishlar, ijodiy tajribani o`zlashtirish jarayonida shunga erishdi. “Mana o`tmishu hozirgi zamon adabiyoti yozish usullaridan ozmi-ko`pmi o`rganib, o`z yo`limni topish ustida ko`p o`ylandim, - degan edi yozuvchi, - bu izlanish hatto nuqta, vergulni qayerga qo`yish borasida ham bo`ladi”.⁵

Yozuvchi Sh.Xolmirzayev ijodi kitobxonlar diqqatini jalb etib kelmoqda. Uning “To`lqinlar” povesti haqida S.Mirvaliyev, A.Rasulov, M.Olimov, A.Quljonov, N.Shukurov, S.Mirzayev, A.Aliyev kabi tanqidchilar bahslashgandilar. Uning

⁵ www.ziyo.uz

“So`nggi bekat” romani bo`yicha professorlar U.Normatov va Ochil Tog`ayevlar munozara qilishgan. Sh.Xolmirzayevning boshqa asarlari ham fikr olishuvlarga sababchi bo`lgan. Demak, u zamondoshlarimizni to`lqinlantiradigan, salmoqli ijtimoiy fikrga molik asarlar ijod qilayotgan yozuvchidir. Uning shunday asarlaridan biri 80-yillarning o`rtalarida e`lon qilingan bo`lib, u roman “Qil ko`prik” deb ataladi.

Yozuvchi Shukur Xolmirzayev hikoyalari, povestlari hamda “So`nggi bekat” romanida, asosan zamonaviy mavzularni yoritgan bo`lsa, “Qil ko`prik” nomli yirik romanida inqilob yillaridagi qaynoq hayot materialiga murojaat qildi. Shu nuqtai nazardan yozuvchining ijodida bu asari yangi hodisa bo`ldi.

Yozuvchi g`oyaviy maqsadini Sharqiy Buxoro – Boysun atrofida sodir bo`lgan tarixiy voqyealarni jonlantirish orqali ro`yobga chiqargan. Sh.Xolmirzayev g`alabalarni himoya qilgan kishilarga xos ko`plab fazilatlarni Qurbon obrazida mujassamlashtiradi. Qurbon oddiy kosibning o`g`li. Ruhoniy Eshon Sudurning homiyligi tufayli madrasada o`qigan, “oq qorani tanish” imkoniyatiga erishgan. Lekin u mehnatkashlarning quyi tabaqasidan chiqqani uchun puldorlar, boy bolalari orasida ajralib turadi. Natijada unda odamlarning qaysi tabaqasidan chiqqanligiga qaramay, teng bo`lishi zarur degan fikr paydo bo`ladi. Shu fikrni amalga oshirish yo`lida u atrofiga nazar soladi. Har qanday yangilikka qiziqadi. Undagi qiziqish Buxorodagi “Yosh buxoroliklar” partiyasining g`oyasi bilan tanishishga olib keladi. Bunda Sadriddinxo`ja unga yordam beradi.

Qurbon yangilikka qiziqishi tufayli qamaladi, inqilob tufayli keyin ozodlikka chiqadi. Qurbon inqilob samaralarini himoya qilish yo`lida fidorkorlik ko`rsatuvchi qahramon darajasiga ko`tariladi. Uning sobiq piri Eshon Sudur islom lashkarlari qo`mondoni Ibrohimbek qoshida bosh maslahatchi bo`ladi. Bu faqat unga dushman qarorgohiga kira olish uchun qulay imkoniyat yaratadi. Shu sababli razvedkachi sifatida yuboriladi. Qurbon o`ziga qiyin va ma`suliyatli vazifalar yuklatilganiga qaramay, ularni sharaf bilan bajaradi va halok bo`ladi.

Yozuvchi Qurbon obrazini jonli va jozibali ishlagan. U ijtimoiy faoliyatda aktiv bo`lishi bilan birga, shaxsiy hayotida ham jozibaga ega. Qurbonning Oyparchaga muhabbati undagi ijobiy xislatlarning yorqinroq namoyon bo`lishiga yordam beradi.

Yozuvchi romandagi barcha obrazlar qatori Qurbon timsolining ham bir yoqlama yaratilishiga yoʻl qoʻymaydi. Qurbon faol kurashchi, jon-dili bilan gʻalabalarni himoya qilishga kirishgan qahramon boʻlsa-da, unda dinga, xudoga ishonish tuygʻulari ham mavjud. Bu romanda nihoyatda haqqoniy va ishontirarli tarzda ifodalangan. Chunki madrasalarda tahsil koʻrgan sobiq mullavachchaning xudodan darhol yuz oʻgirishi mumkin boʻlmagan hol.

Katta epik asarlar yaratish sohasida muayyan tajriba toʻplagan Shukur Xolmirzayev 80-yillarning ikkinchi yarmida yana zamonaviy mavzuda roman yaratishga kirishadi. Natijada uning “Yoʻlovchi” romani maydonga keladi. Muallif unda qayta qurish yillarining manzaralarini gavdalantirishni oʻz oldiga maqsad qilib qoʻygan edi. Asarda yozuvchi asosiy qahramonini yoʻlga tushirib, sovxozdan sovxozga, qurilishdan qurilishga oʻtkazadi. U atrofda sodir boʻlayotgan voqealarga qahramon koʻzi bilan qarab, ularni tushunishga, tahlil qilishga va baholashga intiladi. Qahramon koʻzidan qishloqlardagi dahshatli mehnat ham, axloqiy tubanliklar ham, nopok kishilaru ishbilarmon rahbarlar ham, hatto uzoq Kubadagi qiyinchiliklar ham qochib qutilmaydi. Yozuvchi qahramonni yoʻlga chiqarib, uni obyektidan-obyektga oʻtkazaversa, safari hech qachon tugamasligini payqab qoladi. Buning ustiga u kitobdagi koʻp voqealar juda sunʼiy va mantiqsiz chiqqanligini sezadi. Shuning uchun ham Sh.Xolmirzayev boshda ikki kitob sifatida oʻylangan bu romanni davom ettirmaslikka qaror qiladi. “Yoʻlovchi” romani shu tariqa yozuvchi ijodida bir tajriba boʻlib qoladi.

Shunga oʻxshash tajribani yoki izlanishni Sh.Xolmirzayevning keyingi yirik asari “Ola boʻji” deb atalgan “Romandan katta hikoya”sida ham koʻrish mumkin.

“Ola boʻji” asarida 80-yillar oxiri va 90-yillarning boshlaridagi sharoit qamrab olingan. Agar asar sovet davrining soʻnggi yillari tasviri bilan boshlansa, Oʻzbekiston mustaqilligining dastlabki kunlaridagi oʻzgarishlar manzarasi bilan xotimalanadi. Asar markazida tarixchi maktab oʻqituvchisi Ulton obrazi turadi. Uni yozuvchi sotsialistik realizm talablariga mos keladigan ijobiy qahramon sifatida koʻrsatishni maqsad qilib olgan. Asar oxirlariga borib esa muallif sotsialistik realizm qoidalaridan chekinibroq Ultonni zaifliklar, kamchiliklar va qusurlar egasi sifatida

ham namoyon qilishga urinadi. Demak, davr shiddati asar metodiga ham o'z tamg'asini bosgan.

Asar boshida Ulton, asosan, go'zal fazilatlar sohibi sifatida namoyon bo'ladi. Chunonchi, u juda bilimli, dono, tajribali va ilmiy ishga qiziqadigan, erkin fikrlaydigan, va'dasiga vafodor bir yigit qiyofasida ko'rinadi. Bular Ultonning qishloqdagi hayoti va o'rta maktabdagi faoliyati tasviri jarayonida yuzaga chiqariladi. Oliy o'quv yurtini bitirganiga ancha o'tgan bo'lsa-da, Ulton hanuz uylanmagan. Buning sabablaridan biri shundaki, u Toshkentda qolgan kursdoshi va sevgilisiga sadoqat saqlaydi. Qishloqda Ultonning uylanmaganligi haqidagi shov-shuvlar ko'payib ketadi va raykom sekretari To'qliboy Qo'chqorov qulog'iga borib yetadi. Qo'chqorov xalq rahbari sifatida darhol bu yigitni uylantirib qo'yish rejasini tuzadi hamda Ultonni o'z oldiga chaqiradi. O'sha yerda Ulton shu qishloqlik vrach qiz Bahor bilan yaqindan tanishtiriladi. Shundan keyin Ulton Toshkentdagi sevgilisini juda tez va oson unutadi. Afsuski, romandagi ko'plab epizodlar kabi bu voqea ham yaxshi dalillanmagan. Qanday bo'lmasin, zudlik bilan Ulton bilan Bahorning to'ylari bo'ladi va unga To'qliboy Qo'chqorovning o'zi rahbarlik qiladi. Bunday mehribonlikning sirlari, sabablari keyinroq ochiladi. So'ngra voqealar shiddatli tezlik bilan davom etadi. Kutilmaganda uyiga qaytgan Ulton xotinini To'qliboy Qo'chqorov bilan buzuqlik ustida tutib oladi. Lekin shuning o'zi bilan To'qliboy Qo'chqorov osongina taslim bo'lmaydi. Aksincha, unga qadar Ultonning boshiga og'ir savdolar tushadi. U jinnixonaga yuboriladi, qochganda esa, qaytadan tutilib, haqiqiy ruhiy kasalga aylantiriladi. Bu orada davrlar o'zgaradi, To'qliboy Qo'chqorov amalidan tushadi va zamonga moslashish yo'llarini qidirib qoladi. Ikki yoshning baxtiga zomin bo'lgani uchun To'qliboy Qo'chqorov ko'z o'ngimizda yozuvchi tomonidan "Ola bo'ji" qiyofasida tasvirlanadi. Mana shunday qisqa sujet chizig'iga asoslanganligi uchun bo'lsa kerak, muallif asarni "Romandan katta hikoya" deb atagan. Biroq, asosiy voqealar oqimi davomida hayotning juda ko'p muammolari, dolzarb masalalari, mavzulari, xalqning tili uchida turgan gaplar qalamga olinadi. Jumladan, asarda o'rta maktablarda bilim berishning saviyasi pastligi, o'quvchilar va o'qituvchilarning savodsizligi, o'quv binolari ta'mirlashga

muhtojligi, qishloqdagi mehnat va hayotning og'irligi, xotin-qizlar ahvolidan nochorligi, cho'ponlar turmushining zahmatlari mavzuini ham, meditsina xizmatining qoniqarsizligi, bolalar o'limining ko'pligi, tibbiy asbob-uskunalarining, dori-darmonlarning yetishmasligi muammolarini ham qalamga oladi. Shuningdek, asarda tarixga va o'tmishga ekskursiya qilinib, o'lkamizning ruslar tomonidan bosib olinishi, mustamlakachilikning mohiyati va oqibatlari, turg'unlik va qayta qurish yillarining turli-tuman qirralari, illatlari, dahshatlari va fojialari, hozirgi kunlarning afzalliklari haqida ham ko'plab fikr-mulohazalar, qarashlar, his-tuyg'ular ham ifoda qilinadi. Bu fikr-mulohazalarning ko'pchiligi qahramonlar tilidan bayon qilinsa-da, aksariyati muallifning o'z o'ylaridek tuyuladi. Go'yo yozuvchi o'zi ko'pdan beri o'ylab yurgan g'oyalarini qahramonlari tiliga joylab qo'ygandek tuyuladi. Afsuski, ularning ko'pchiligi oddiy bayon, ya'ni deklaratsiya bo'lib qolgan va asarning asosiy voqealariga, qahramonlarning xatti-harakatlariga, romanning butun to'qimasiga yaxshi bog'lanib ketmagan. Asar kompozitsion jihatdan nomukammal va tarqoq chiqqan. Shunga qaramay, filologiya fanlari doktori I.Mirzayev o'zining "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasida chiqqan taqrizida bu asarni butunicha ijobiy baholagan.

So'nggi yillarda Shukur Xolmirzayev iste'dodining yana bir yangi qirrasini namoyon bo'la boshladi, ya'ni u yaxshi dramaturg sifatida ijodning eng qiyin sohasida dastlabki qadamlarni qo'ya boshladi.

Dramaturgiyaga qiziqish Shukur Xolmirzayev qalbida va ongida juda erta uyg'ongan. Bunday qiziqish ilk bor Shukur Xolmirzayev Toshkent Davlat dorilfununi filologiya fakultetiga o'qishga kirgan paytlarda namoyon bo'lgan. O'sha paytda, ya'ni 60-yillarning boshlarida dorilfununda juda yaxshi drama to'garagi bor edi. Unga mashhur aktyor Shukur Burxonov rahbarlik qilar edi. Shu to'garakka faol qatnashib, Shukur Xolmirzayev Shekspirning "Gamlet" tragediyasida bosh rolni o'ynaydi. Uning o'zi eslashicha, o'shanda Shukur Burxonov Xolmirzayevni teatr san'ati institutiga olib ketmoqchi bo'lgan. Lekin aktyor bo'lishdan ko'ra dramaturg sifatida qalam tebratishni afzal bilgan Shukur Xolmirzayev dorilfunundagi o'qishni davom ettirgan. Shunga qaramay, u dramatik asar yozishga birdaniga kirishmagan.

Juda ko'p hikoya, qissa va romanlar yozgandan keyingina Sh.Xolmirzayev san'atning eng qiyin sohasiga, ya'ni adabiyotning gultoji hisoblanuvchi dramaturgiyaga qo'l urdi.

Sh.Xolmirzayevning "Ziyofat" asari jiddiy drama yaratish yo'lidagi ilk izlanishi bo'lgan. "Ziyofat" asari ma'naviy-axloqiy muammolar talqiniga bag'ishlangan dramadir. Shukur Xolmirzayev bu dramasida ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlar haqida fikr bildiradi. "Ziyofat" dramasi xotin-qizlarimizning taqdiri to'g'risida haqqoniy bahs yurituvchi asardir.

Drama ikki pardadan iborat bo'lib, birinchi pardasida Xayrigul ismli bir ayol o'ziga o't qo'yib o'lganidan so'ng, sovxoz direktori Metin, qishloq soveti raisi Habiba, rayon militsioneri Nurmat, gazeta muxbiri Qismat, mehmonxona xizmatchisi Omon va uning xotini Paxtagulning bo'lib o'tgan noxush voqea xususida fikrlashuvlari haqida gap boradi. Birinchi parda shunday xulosa bilan yakunlanadi. Go'yoki Xayrigul sevimli erining fojiali o'limiga dosh berolmay, o'z joniga qasd qilgan...

Dramada Habiba, Nurmat, Qismat bir maktabda o'qigan sinfdoshlardir. Ular jamiyatdagi eng kir, ma'naviy tubanlashgan shaxslardir. Paxtagul aytganidek, ular bir jamoa, kelishib ish qiladilar. Har qanday ishni pul bilan o'lchaydigan razil kishilar qiyofasidir. Ular Paxtagul aytganidek, mafiyadir.

Dramada hozirgi hayotimizda bo'layotgan hodisalar o'z ifodasini topgan. Ya'ni tanish-bilishchilik, mansab, amaldorlik kabi illatlarni ham adib fosh etadi.

Xayrigul o'ziga olov yoqadi. Demak, bu olov yoqishda biror sabab bo'ladi. Yaqin-yaqinlargacha xotinlarga past nazar bilan qarash g'oyasi saqlanib keldi.

Tuban kimsalar Xayrigulning o'limi bilan bog'liqliklarini bosti-bosti qilib yuborish uchun hech nimadan qaytmaydilar. Yosh ayol nima uchun bu kunga tushgan deb qattiq o'ylanib, borib uyiga hol-ahvolini so'ramaydilar. Eshitganlariga asosan fikr yuritib, gazetaga maqola yozadilar. Ularning axloqiy jihatdan tubanligi ham fosh etiladi.

Dramada Paxtagul obrazi katta mahorat bilan yaratilgan. Paxtagul jirkanch hayotdan nafas olayotganidan qattiq iztirob chekadi. U adolat bormikin bu hayotda, -

deb o'ylaydi va o'ziga olov yoqadi. U bunday hayotda yashashni xohlamaydi. Demak, Paxtagul ma'naviy dunyosi pok ayoldir.

Xotin-qizlarimiz orasida Paxtagulga, Xayrigulga o'xshab o'ziga olov yoqqanlar oz bo'lsa-da bor-ku! Yaqin-yaqinlargacha bu bir an'anaga aylanib ketayozdi. Ammo hozir ancha kamaygan... Demak, dramani tomosha qilib, biz xotin-qizlarimizning ijtimoiy hayotiga beparvo bo'lmasligimiz kerakligini anglaymiz.

Shukur Xolmirzayevning "Qora kamar" dramasi bu janrdagi ikkinchi asari hisoblanib, bizning ko'z o'ngimizda birmuncha uzoqroq davrlar manzarasini jonlantiradi. Unda Oktabr inqilobidan keyingi yillarning shiddatli o'zgarishlari, grajdanlar urushi davrining murakkab, ziddiyatli hodisalari, falokatlari, zahmatlari qalamga olingan. Bularning hammasi dramadagi qahramonlarning ruhi va o'y-fikrlariga o'z muhrini bosadi. Shunga ko'ra "Qora kamar" o'ziga xos ijtimoiy-psixologik drama hisoblanadi.

Yozuvchi Shukur Xolmirzayev "Qora kamar" asaridagi Xurrambek obrazini ishonarli haqqoniy badiiy aks ettirib bera oldi. Albatta, yozuvchi bu asarni yozish uchun tarixni sinchiklab o'rgandi, bu voqeaning ayrim ishtirokchilari, guvohlar bilan uchrashib suhbatlashdi. Shuning uchun asardagi Xurrambek obrazi jonli chiqqan. Yozuvchi bu asardagi Xurrambek obrazi orqali yurtimizning asl o'g'lonlarining bosmachi emasligini o'z yurtining mustaqilligi, ozodligi uchun kurashgan kishilarni hech qachon bosmachi deyish mumkin emasligini, ularni istiqloлчаilar deyish mumkinligi, bosmachi bilan istiqloлча so'zini bir-biriga aralashtirish mumkin emasligini, asl bosmachi deganda o'zga yurtni bosib olib, shu yurtni talon-taroj etuvchi kishilar tushunilishini ko'rsatib bera oladi⁶.

Shukur Xolmirzayev o'ziga xos shaxsiy badiiy uslub sohibi sifatida taqlidchilikdan, biryoqlamalikdan, bayonchilikdan qochadi so'zga xasis bo'lsada, fikrini o'quvchiga to'la va yorqin etkazishga erishadi. Biroq ba'zan uning asarlari tugallanmagandek taassurot uyg'otadi. O'quvchi asar davomini kutadi. Qahramonlar

⁶ Хомидова М. Бир образда икки қиёфа талқини. //Ўзбек тили ва адабиёти , 2001-йил, № 4, 62-63 б.

portretini chizmaydi, asosiy e`tiborini xarakter yaratishga qaratgandek ko`rinadiki, bu o`quvchini o`ylashga, chuqur mulohaza qilishga majbur qiladi. Asar qahramonlari ustidan chiqarilgan hukm o`quvchi e`tiboriga havola etiladi. Har bir o`quvchi qanday asar o`qimasin o`qigan asar qahramonlarining taqdirini o`zi xohlaganidek bo`lishini istaydi. Shukur Xolmirzayev o`zining “Jahonbop asar yoza olaman, lekin..” nomli maqolasida asar yakunining qanday bo`lishi haqida o`z fikrlarini beradi. “–Keyingi paytda hikoyachilik sezilarli darajada oqsayapti. Masalan, gazetamizning nasr bo`limiga yaxshi hikoya juda kam keladi. Yozuvchilardan so`rasak, yozolmayapman – hali u, hali bu sabab, deyishadi... Vaholanki, zamon qahramoni, degan masalalar bor. Siz shu jarayonga qanday qaraysiz?

– O`zim ham o`shalarning bittasi sifatida aytishim mumkin. Bilaman, men yoza olaman. Men yozganimni “ko`tarolmaydi” adabiyotchilar.

– Qaysi ma`noda?

– Xuddi o`sha qahramon obrazi masalasida. Misol uchun, sayrga chiqqan ayol

chiroyli kiyinib, xursand bo`lib, bolalari bilan tomosha qilib yurdi, qaytishda esa avtobusga puli qolmadi... Ana shu yerda ochiladi qahramon qiyofasi! Prezidentimiz aytayapti: rostini aytinglar, rostini yozinglar, deb. Hech kim yozmayapti rostini. Ilgariyam o`zi hikoyanavislar juda kam edi, barmoq bilan sanarli darajada. “Hikoyani shunday bir joyda to`xtatki, qahramonning o`limi ma`lum bo`lsin yoki yashab ketishi muqarrar bo`lsin” – deydi Jek London. O`sha nuqtani topa bilishimiz kerak.⁷

F.M.Golovchenko yozadi: “Hikoyada xarakter taraqqiyotda berilmaydi. Har bir shaxs tayyor holda namoyon bo`ladi, uning biror xususiyati ochib beriladi”.

L.I. Timofeyev yozadi: “Xarakter shakllangan, tayyor holda ko`rsatiladi. Aks ettirilayotgan voqeagacha xarakterning qanday bo`lganligi, u tugagandan so`ng qanday bo`lishligi tasvirlanmaydi”.⁸

⁷ www.ziyo.uz.

⁸ Адабий турлар ва жанрлар. I жилд, Тошкент, Фан, 1991, 71-б.

Shukur Xolmirzayevning hikoyalarida ham xarakterlar taraqqiyoti batafsil berilmaydi. Ammo hikoyalari orqali hayotning ma`lum bir qismini yorqin aks ettirib beradi.

Chunki “...hikoya janrining xarakterli xususiyatlaridan biri ham ana shu hayotdagi yangiliklarga hozirjavoblikdir. Hikoya so`zining fransuzcha ekvivalenti “novella” ham “yangi” degan ma`noni ifodalaydi”⁹.

Yozuvchi Shukur Xolmirzayev hikoyachilik rivojiga o`zining hikoyalari bilan salmoqli hissa qo`shgan. Atrofda ro`y berayotgan voqea-hodisalarga hikoyalari orqali hozirjavoblik bilan javob bera olgan.

⁹ Сойимов Б. Улуғ ватан уруши даври ўзбек адабиётининг жанр хусусиятлари. Тошкент, Фан, 1984, 74-б.

II BOB. Adib hikoyalarida bola ruhiyati

Inson ruhiyatining tahlili, uni chuqur tushunish va tasvirlash mahorati – adabiyotning tub mohiyatini belgilovchi sifat darajasiga ko'tarilishi birdaniga yuz bermagan. Adabiyotning turli rivojlanish etablarida bu muammo turlicha tushinilgan. Jumladan, Aristotelning “Poetika” asarida qayd qilinishicha, badiiy asarning asosiy belgisi – tashqi hodisalarning tasviridir, xarakter esa tashqi hodisalar tasviridan keyingi vositadir.¹⁰

Adabiyot rivojining dastlabki davrlaridan boshlab inson ruhiyatini yoritish muhim masala bo'lib kelgan. Chunki inson ruhiy holatidan, xarakteridan kelib chiqqan holda o'z harakatlarini amalga oshiradi. Har qanday yozuvchi yaratayotgan qahramonining ruhiyatini tushunmay, uni to'laqonli anglab yetmay turib yaxshi asar yarata olmaydi. Bu haqda hozirgi kungacha ko'plab adabiyotshunos olimlarimiz o'zlarining turli xil fikrlarini bildirib kelishmoqda.

“Psixologizm... yozuvchilik mahoratining eng muhim jihatidir” (A. Qahhor), asar badiiyligining asosiy ko'rsatkichlaridan biridir. Chunki “odam adabiyotning tasvir predmetidir. Odam tasviri yo'q joyda badiiy adabiyot yo'q, shu bilan birga “odam tasviri” demak –boshlica odamning ichki dunyosi tasviri, uning kechinmalari tasviri demakdir.”¹¹

Hayotda bo'lganidek, adabiyotda ham odam o'zining individual psixologik xususiyati bilan boshqalardan ajralib turadi bu xarakter (“tamg'a”, “xislat”, “belgi”, “alomat” ma'nolarini beradi) tushunchasi bilan bog'liqdir.¹²

Umuman, badiiy ijod sohasida andoza bo'lmaganidek, hikoyada xarakter yaratilishi uchun ham andoza yo'q bo'lib, u yozuvchi mahorati va aniq maqsadidan kelib chiqadi. Xarakter qotgan holda ham, rivojlangan holda ham bo'lishi mumkin.

¹⁰ Умуров Х. Бадий психологизм ва ҳозирги ўзбек романчилиги. Тошкент, 1983, 11-б.

¹¹ Умуров Х. Бадий психологизм ва ҳозирги ўзбек романчилиги. Тошкент, 1983, 13-б.

¹² Умуров Х. Бадий психологизм ва ҳозирги ўзбек романчилиги. Тошкент, 1983, 20-б.

Biroq bu o'sish jarayoni janrning hajm jihatdan chegaralangani sababli povest va romandagi singari keng davrni emas, bir yoki bir necha epizoddangina iborat bo'ladi. Biroq hajm chegaralanishi janr qimmatini tushirmaydi, hikoyada xarakter boshqa janrlar bilan bir qatorda davrlarni ko'rsatib chiqishga qodir.¹³

Shukur Xolmirzayevning "To'p o'yini", "Ko'ngil" kabi hikoyalarining qahramonlari Tarzan, Nazrulla va ularning oila a'zolari ikkinchi jahon urushidan jabr ko'rgan. Hikoyaga bu kabi xarakterlarni kiritish orqali yozuvchi urush yillaridagi og'ir hayot tarzini o'quvchiga ko'rsatib, bugungi farovon hayotimizning har oniga shukrona aytib yashashga chorlaydi.

Yozuvchining asarlarida inson ruhiyatini ayniqsa o'smir bolalar ruhiyatining nozik qirralarini ochishga harakat qilgan. Vaholanki inson zotining eng ta'sirchan, beriluvchan, salga xafa bo'ldigan, qizziqqon davri bu o'smirlilik davridir. Agar uni qilgan ezgu ishiga sal rag'bat, e'tibor bo'lsa, u kelajakda usta-hunarmad, shoir-yozuvchi, balki o'qituvchi-murabbiy hatto olim bo'lib yetishishi mumkin. Yozuvchi bu xil ko'rinishdagi asarlari bilan kelajagimiz poydevori bo'lgan yoshlarga, ularning qizziqishlariga e'tibor bilan qarashga o'z hayot yo'llarini tanlashlarida ularga maslahat va tafsilyalar berishga chorlaydi.

Adibning "Qorbobo keladi" hikoyasi yosh yigit tilidan bayon etiladi. Yozuvchi bu hikoyani jiyanlarining suhbatidan eshitib qolganligini asar boshida aytib o'tgan. Hikoyada juda ishonuvchan, qalbi pok bolaning ruhiyati ochilgan. Unda bir bola, bola bo'lganda ham juda sodda, ishonuvchan, qalbi pok, orzu qilgan narsalarini o'zi xohlaganday tasavvur qiladigan va shunga o'zi ham ishonadigan obraz sifatida tasvirlangan. U qish faslida tug'ilgan. "Ilk ko'rgan narsalarim: oyim, qor va qorbobo"¹⁴ deb, faxrlanib yuruvchi bola. U qorboboni o'rmonda yashaydi va har yili yangi yilda sovg'alar ulashish uchun qishloqlarga keladi va yanagi yangi yilgacha o'rmonga qaytib ketadi deb o'ylaydi. Bola maktab yoshiga yetgach,

¹³ Адабий турлар ва жанрлар. I жилд. –Тошкент, Фан, 1991. 74-б.

¹⁴ Холмирзаев Ш. Танланган асарлар. I том. –Тошкент, Шарқ, 2003. 75-б.

maktabga boradi. Bir kuni do'stlari ana qorbobo mallim ketmoqda desa, u yo`q, qorbobo o`rmonda yashaydi, har yangi yilda sizni bizga sovg`a bergani keladi, u bu yerda nima qilsin deb, o`z o`ylarini himoya qiladi. Do'stlari bu gaplarni eshitgach uning ustidan kulishadi. Ular ko`rgan qorbobo haqiqatdan ham yangi yil tadbirida qorbobo bo`lgan maktab o`qituvchisi edi. Bola qorboboning maktab o`qituvchisi ekanligini bilsa ham, o`rmonda yashovchi qorbobolar aslida yo`qligiga aqlan ishonsa ham, baribir u o`rmonda yashovchi qorbobo borligiga va har yangi yil kechasida unga sovg`alar olib kelishiga ishonadi. Bola o`zicha men chol bo`lib qolsam ham, baribir bu xayollarim o`zgarmasa kerak deb o`ylaydi. Yozuvchi bu hikoyasi bilan bolalikdagi toza, beg`ubor, gardsiz o`y-fikrlarimizni doimo shu holicha, soflicha unga chang-g`ubor yuqtirmasdan, doim to`g`ri yo`ldan sobitqadamlik bilan ilg`or g`oyalarni ilgari suruvchi faol o`quvchi yoshlar bo`lishga barchamizni undamoqda.

Yozuvchining “Bahor” hikoyasida esa tog`li hududlarda yashovchi, qalbida ilk muhabbat kurtak otayotgan va bu ayni bahor faslida daraxtlar uyg`onib, barg yozayotgan fasl tasvirlanib hikoyaga yanada joziba bergan.

Hikoyada Bibigul ismli qiz, bolani velosipeddan yiqilib tushganini ko`rib qolib va bu voqeani oyisiga aytgani ifoda etilgan. “Azimovning qizi seni velosipedda ko`ripti. Yiqilibsan. Onasiga aytipti...

Onamning bu gapi mening tinchimni yo`qotdi: demak, bibigul meni ko`ribdi, yo`q.. menga e`tibor qilipti. Yiqilganimga achinipti. Hatto onasiga ham aytibdi!”¹⁵

Bola oyisining bu gaplaridan ta`sirlanib, qalbidagi tug`yonlarni jo`sh urib ketganidan o`zi ham hayratda qolib, dashtga yo`l oladi. Onasi bahor havosida u yerga borish juda xavfli, katta bir cho`ponni dashtda chaqmoq urib, nobud qilibdi, degan so`zlari ham uni o`z fikridan qaytara olmadi. U yo`lga chiqdi.

— *Ena, men dashtga ketaman! – dedim.*

¹⁵ Холмирзаев Ш. Танланган асарлар. I том. –Тошкент, Шарқ, 2003. 121-б.

- *Hozirmi? Shu kundami! –hayron bo’ldi onam. –Yog’in-sochin mahali, bolam. Dashtda chaqmoq yomon bo’ladi, bir cho’ponni urib ketipti!*
- *Hechqisi yo’q. Men oq kiyim kiymayman-ku!*
- *Kim bilan borasan dashtga?*
- *O’zim. O’tkinchilar bilan. Chorbozorchilar bor. Ana, eshagim!*
- *Nimaga birdan boradigan bo’lib qolding?*
- *Enajon, hademay yoz boshlanadi. Velosipedimni opkelaman!*
- *Axir, hozir velosiped minib bo’ladimi? Baribir keltirib omborga qantarib qo’lasan. .*
- *Baribir borgim kelayapti. Dashtniyam sog’inayapman!*
- *Kutsang bo’lardi bir-ikki kun. Ayttirib yuboraman. Akang o’zi opkeladi.*
- *Yo’q. Erta shanba. Tushdan keyin jo’nayman. Bozor kuni qaytib kelaman.*
- *O’zingga ehtiyot bo’l-da.*¹⁶

Onasining zorlanib uni yo’ldan qaytarmoqchi bo’lganiga qaramasdan u o’z fikridan qaytmaydi. Bu o’smir yoshdagi har bir yosh bola, o’g’il yo qiz bo’lishiga qaramay o’z fikrini barcha narsadan ustun qo’yib, shu fikr amali uchun hech narsadan qaytmaydigan bolalar xarakterini ochib bergan. O’smirlik davrini ba’zi psixolog olimlar o’tish davri deyishlari bejizga emas. Bu davrda o’smir biroz hudbin, boshqalar fikriga e’tiborsiz, o’z hissiyotlari girdobiga tushib qolib, ba’zan bu girdobdan chiqib olish uchun ruhshunoslar yordamiga muxtoj bo’lib qolish hollari ko’p uchramoqda.

Ammo bu hikoyada keltirilgan qahramon o’z hissiyotlari girdobidan tez chiqa oldi. Velosipedini dashtdan olib kelgan kunining ertasigayoq uni minib, Bibigulning ortidan boradi va qattiq hayajonlanganidan qoqilib yiqiladi.

-Ko’zinga qarasang bo’lmaydimi? Hamma vaqt yiqilib yurasan-a!-dedi Bibigul va darvozalaridan kirib ketdi.

¹⁶ O’sha asar. 124-b.

Men velosipedimni turg`izib xiyobonga chiqardim, yig`lagim kelardi...

Keyin bildim: u menga qiziqmagan, menga achinmagan. Onasiga ham shunchaki gapirgan ekan.

Demak, hikoya qahramoni Bibigulni o`ziga nisbatan e`tiborli deb o`ylagan, ammo hikoyadan keltirilgan so`ngi misolda qizning bolaga qilgan muomalasi orqali uning yigitga nisbatan befarqligi anglashilmoqda.

Shu o`rinda asarning nomlanishiga e`tiborimizni qaratsak. Agar yozuvchi tog`li hududning faqat qiyin sharoitini aytmoqchi bo`lganida kuz yoki qish fasli tasvirini, yoki asar nomlanishini ham “Bahor” emas, “Kuz” yoki “Qish” deb qo`yishi mumkin edi. Ammo yozuvchi aynan “Bahor” deb nomladi. Bahor faslida tabiatning injiqligi, ob-havoning goh unday, goh bunday ya`ni, ba`zan ertalab quyosh chiqib turgan bo`lsada, tushga borib yomg`ir yog`ib berishi barchamizga ma`lum. Bu faslda tabiatning bunchalar tez o`zgarishini yangi tushgan kelinchakka ham o`xshatishadi. Tabiat o`z libosini shu darajada tez almashtiradiki, buni hatto sezmay qolasiz. Qishloqlarda dehqon bobolarimiz endi ekin ekaman deb turganlarida jala quyib beradi va bir ozdan so`ng quyosh o`zgacha usulni tanlagan.

“*Jo`raboshi*” hikoyasi o`zlarini ko`chaning “xo`jayinlari” deb biluvchi bir guruh, har xil yoshdagi bolalarning hayotidan olingan haqqoniy lavhadir. “Ko`cha xo`jayinlari” ning boshlig`i Habibulla ismli bola bo`lib, u harbiy xizmatga ketish arafasida o`z “ishchilari” bilan xayrlashib, ularga vazifalar tayinlamoqda. “Ishchilar” ham “boshliqlari” nima vazifa bersa bosh egib rozilik bildirishmoqda. Habib kuchigi Ko`ktoyni boqishni ham ularga topshirmoqda.

-Habibulla davradan chetda, olcha tunkasi yonida chunqayib o`tirib, baroq dumi bilan yerni siypayotgan itiga o`qraydi.

-Ko`ktoy! K-o`o`k! Bu yoqqa kel! Idi!- deb tizzasining ko`ziga shapatiladi.

-Yo'l beringlar unga, Nurka!-deb qo'llarini cho'ntagiga tiqib , bir yalang oyog'i bilan ikkinchi oyog'i to'pig'ini qashib qoracha bolaga baqirdi. -Yo'l bo'shat unga Nurka!

-O't oshna! O't!- dedi, it yana qiypanlagach, chopib borib, uni bo'ynidan quchoqlab tortdi.- Ke, ke deya! Ataman bilan xayrlash!

-Qo'zi,- deya bolalarning eng durkiniga murojaat qildi. – Sen qarab turgin bunga. Qarib qolgan, itlar bilan urishmasin, ovqatga unchalik ishtahasi yo`q, go`sht-po`sht berib tur.¹⁷

Uzun semiz qo'llarini orqasiga qilib, to'ladan kelgan gavdasini egib turgan Qo'zi uyquli ko'zlarini ochib yumdi.

Hikoyadan keltirilgan bu parchadan ham ma'lum bo'ldiki jo'raboshi Habibullaning so'ziga barcha bolalar so'zsiz itoat etadi. Bunga sabab Habibullaning yoshi ham boshqa bolalarga qaraganda ancha katta va o'zida ham jo'raboshilarga xos kelbat borligidir. Habibulla ham boshqa tengqurlariga o'xshab hayvonlarga qiziqadi. U it va parrandalarni mehr bilan parvarish qiladi. Sho`x o'yinqaroq bo'lishiga qaramay doim tovuq va qushlarining don - suvidan xabar oladi.

-Habibulla otasi uyda ekanligini eslab, qayrildi, sigaretasini uch - to'rt marta so'rib - so'rib tortdi-da, u ham ichiga tufladi, so'ng qutini olib, ichiga ehtiyotkorlik bilan solib qo'ydi.

-Yur ko'ramiz dakangni,- dedi.

Ashim ham sigareta qoldig'ini paxsa devor kovagiga tiqdi-da, yutalib unga ergashdi.

Ular lang ochiq darvozadan kirib, suvi kamayib, rangi uchib ketgan hovuz bo'yiga kelishdi. Habibulla shahdam yurib, bir vaqtlar akasining uyi bo'lib, u ko'chib

¹⁷ Холмирзаев Ш. Танланган асарлар. I том. –Тошкент, Шарқ, 2003. 176-б.

ketganidan keyin esa tashlandiq holga kelgan va ayvoni bosib qolganidan so`ng o`zi kaptarxonaga aylantirgan uy tomon burilar ekan, achinib hovuzga qaradi.

-Ota ! – deb baqirdi hovuzning narigi tomonidagi shosupada cho`t urib o`tirgan Eshqul akaga tumshug`ini cho`zib. – U qiz taloqlar nega suv bermadi-ya, hovuzga qarang!

Habib tovuqlarning suvsiz qolganini ko`rib otasiga ham baqirdi. U mehr qo`ygan tovuqlari hali xizmatga ketmasidan suvsiz qolganligini ko`rib, men ketsam bundan ham yomon bo`ladi deb kuyinganidan baqirdi.

Habib o`z navbatida do`stlaridan hech narsani ayamaydigan, saxiy, ko`ngli ochiq bola. U katak ichida yolg`iz yurgan dakangni do`sti Ashirmatga topshirdi.

...Habibulla kaftini silkitib, novvot uvoqlarini katakka sochib yubordi. Dakang xursand bo`lib, chig`illab yubordi va “churq-churq“ lab, ushoq tushgan yerda aylana boshladi. Narigi qafasdagi tovuqlar bezovta bo`lib, to`r devor yaqiniga keldi. Shunda o`sha qafasning tepasida turgan yosh qizil xo`roz “parr” etib yerga tushdi va tovuqlar galasiga o`zini urdi... .

-Ozi shu yoshini yo`qotish kerak! – dedi Ashim. – Dakang bo`ladi bir o`zi.

-Yo`q uyam yaxshi,- dedi Habib. – Uyam dakang bo`ladi.

-Bo`lmasa buni so`yish kerak.

-E bunda go`sht nima qilsin! Hammasi pay bo`p ketgan. – Habibulla do`stiga olayib qaradi. –Tag`in buni birov so`yib yubormasin xo`pmi?

- Xo`p.

Habibulla barcha do`stlari bilan xayrlashdi. Ularga topshiriqlarni berdi.

Ularning “Qachon ketasiz” degan savoliga: -Ertaga voyenkomatdan jo`natishadi!- deb mag`rurlik bilan javob berdi.

Habib jo`raboshi bo`lganligidanmi xarakterida biroz manmanlik bor.

Habibulla harbiy xizmatga jo`nadi. Onasi otasiga qancha yalinmasin otasi o`g`lini ko`cha bolalari bilan o`ynab, bezorilik qilib yurganidan ko`ra, xizmatga borib, o`z vazifasini bajarsa foydaliroq ishga qo`l urgan bo`lishini aytdi. Onaizor noiloj o`g`lini xizmatga jo`natdi. Habibning o`zi ham harbiy xizmatga borishni xohlamoqda edi.

Habib boshqa harbiy xizmatga ketuvchi tengqurlari qatori mashinaga o`tirdi. Ular Termiz vokzaliga borib, vagonga chiqishmoqda. Habib o`zini bu yerda hech kim kuzatmasligini bilib, sigareta chekib turdi. Uning tengqurlari esa kuzatgani kelganlar bilan xayrlashib vagonga chiqishardi.

Hech kutilmaganda Habibni kimdir chaqirdi. U esa bu yerda uni chaqiradigan hech kim yo`qligiga to`la ishongan holda poyezdga chiqardi. Habib naqadar qattiqqo`l jo`raboshi bo`lmasin uning do`stlariga bo`lgan mehri o`zgacha edi. Do`stlari ham uni o`z tug`ishgan akalariday ko`rishardi. Nihoyat ko`cha bolalari vokzalga birin-ketin kirib kelishdi.

Habibulla endi sigaretani tashlagan edi, orqasidan : Habib-ib, Habibullaka! degan ovozlari eshitildi.

Habibulla orqasiga o`g`irilgan edi, vokzalga kirib kelayotgan Ashim, Qo`zi, Nurali, In`om va Ko`ktoyni ko`rdi. Ashimning quchog`ida dakang xo`roz, Qo`ziboy gitarani ko`tarib olgan edi.

Bolalar qo`llaridagi Ko`ktoy, dakang xo`roz va gitaralari bilan qo`l siltab, yurib ketayotgan poyezd tomon yugirib ketayotgan Habib ortidan xayr deb, chopib borishardi.

Bunday mehrni hech kutilmaganda ko`rgan Habibning ko`zlariga o`zi xohlamagan tarzda yosh keldi. Chunki u bu bolalar uni yaxshi ko`rishini, u bilan xayrlashish uchun uning eng yaxshi ko`rgan narsalarini olib kelishlarini hech ham kutmagan edi.

Habib ular bilan xayrlasharkan, o'zining ularga nisbatan ancha katta bo'lib qolganini sezardi.

Adibning *“Nasib etsa”* hikoyasida haqiqatgo'y bola to'g'risida gap boradi. Elyor Bo'ritosh opasini juda yaxshi ko'radi. U ishdan kelgan zahoti bola uning atrofida girdi kapalak bo'lib o'ynar, u bilan sihatlashar edi.

Bo'ritoshni qishlog'idan Berdiyori yaqinda olib qochib kelganligi uchun Elyor unga oilasi, qishlog'i to'g'risida o'zini qiziqtirgan savollarni beraverardi.

- *Uylaring mana shu tog'ni orqasidami?*
- *Ha, o'sha yoqda edi.... Endi yoq.*
- *Nega yo'q. Unda ota-onangiz qayerda turadi?*
- *O'sha yerda, uy ham o'z joyida. Lekin men ularga begona bo'lib qodim. Endi, Elyorjon, mening uyim ham mana shu- sizlarning uyingiz bo'ladi.*
- *Ur- re-a!... Opajon, tog' qo'rqinchlimi?*
- *Juda. Lekin akang qo'rqmas yigit... qo'rqoq bo'lganda meni bu yoqqa opqochib kelolmas edi.*
- *Akamni yaxshi ko'rasizmi?*
- *Ha.*
- *Meni-chi?*
- *Seniyam. Sen shunday aqllisan! Katta bo'lsang albata yaxshi odam bo'lasan. Mard, qo'rqmas... Haqiqat uchun kurashadigan, haqiqatchi!*¹⁸

Elyorning haqiqatgo'yligi bir kun kelib Bo'ritoshni bu uydin ketishiga sabab bo'lishini Bo'ritosh hali bilmasdi.

Elyorda yoshiga xos qiziquvchanlik, har narsani bilishga intilish juda yuqori edi. U Bo'ritosh opasidan - Qachon qishlog'izga boramiz, qachon onangiz keladi ? - deb so'rayverardi.

¹⁸ Холмирзаев Ш. Танланган асарлар. I том. –Тошкент, Шарқ, 2003. 254-6.

Aslida Bo`ritosh bu yerga Berdiyorning yolg`on va`dalariga uchib kelgan edi. Kunlardan bir kuni Bo`ritosh Berdiyorning gaplari yolg`onligini bilib qoladi. Bu ishda unga yosh, qiziquvchan Elyor yordam beradi. Elyor Bo`ritoshning iltimosi bilan akasi Berdiyorning ortidan kuzatuv olib boradi. Va bor haqiqatni bilib oladi. U o`zicha zo`r ish qilgan, haqiqatgo`ylardek bu xabarni Bo`ritoshga yetkazadi.

Oy chiqib, qishloqni yoritganda Elyor zig`ir poyaga tutash o`qariqda cho`nqayib o`tirar, ko`zlari yalt-yult qilayotgan Qoraboyning baroq bo`ynidan quchib olgan edi. Zig`irning yoqimli, bir oz taxir hidi keladi. Qayerdadir baqa qurullaydi, chigirtkalar sayrashi avjida. O`qariq nam, botqoq, chirik yaproq hidi keladi.

Ufqni to`sib turgan tepalik bag`rida ikkita qora ko`rindi, ular oqarib turgan so`qmoqdan o`tib, chayla ostiga kelishdi. Elyor ularning kulgisidan payqadi: biri akasi, biri tovushu yo`g`on Zumrad opa.

Elyor bu xabarni shosha-pisha Bo`ritoshga yetkazdi.

Bo`ritosh rangi oqarib karavotda o`tirardi:

- Rahmat, aylanay. Menga katta yordam qilding- dedi.
- Endi nima qilasiz?... A... ayting... Lekin ketmaysiz! Hech qayoqqa ketmaysiz... to`y bo`ladi! Chig`atoydan ota-onangiz keladi. Keyin biz ham boramiz... Opajon ketmang! Men aytganingizdek bo`laman, mard, haqiqatchi.

Elyor Bo`ritosh nima desa qiladi. Uning uchun ayg`oqchilik ham qiladi. Men shunday qilsam opam ketmaydi deb o`ylaydi. Bo`ritosh shu yerda qolishi uchun har narsaga tayyor. Qorong`u bo`lsada yosh Elyor Bo`ritoshning ishonchini oqlash uchun o`z akasini kuzatadi. U barcha harakatlari bir kuni yi`g`ilib Bo`ritoshning ketishiga sabab bo`ladi deb o`ylamagandi.

Bo`ritosh shubhalari rostligiga amin bo`lib, ketishga chog`landi. Elyor unga qanchalik yalinib-yolvormasin, u o`z fikridan qaytmadi. Bo`ritosh Elyorga haqiqat va haqiqatgo`ylik haqida shunday dedi:

- Sen haqiqatchi bo`lib olding, -dedi entikib. – Endi orqaga qaytmaysan, jonim!... Haqiqat shunday narsa: u shafqatsiz bo`ladi, u yig`latadi. Buning uchun gap eshitishing ham mumkin... Lekin haqiqat hamma narsani joy-joyiga qo`yadi. Yolg`onchilik, aldanishga barham beradi.¹⁹

Elyor haqiqat achchiq bo`lishini, achchiq bo`lsa-da barcha narsani o`z o`rniga qo`yishini anglab yetdi va bundan so`ng ham Bo`ritoshga bergan va`dasiga amal qilib, faqat haqiqat yo`lidan yurishni o`z oldiga maqsad qilib oldi.

Inson o`zini taniy boshlagandan boshlab odatiy narsalarni o`zgartirishga harakat qiladi. O`zini o`rab turgan muhitni boshqacha bo`lishini xohlab qoladi. Ayniqsa bayram kunlarini o`zgacha bir ruhda, yangicha davrada, an'anaviy holatga o`xshamagan tarzda bo`lishini istab qoladi. Bu maqsadini amalga oshirish uchun hatto, ota-onasidan ham uzoqlashishga harakat qiladi.

Hikoya qahramoni Zebo ham yaqinlashib kelayotgan yangi yil oqshomini o`zgacha kutib olmoqchi. Bu maqsadni amalga oshirish uchun u ota- onasini tashlab, shaharda yashovchi akasi Oqiljonlarnikiga yo`l olmoqda. Ota va onasi qarib, yolg`iz shu qizlari bilan ovinib qolishgan edi. U ham bayram arafasida ulardan uzoqlashishni xohlab qolgani ota-onasiga bir oz og`ir botdi. Shunday bo`lsada Zeboni shahar avtobusiga o`tqazib, akasining uyi yaqinida tushurish uchun otasi haydovchiga ko`proq pul berdi.

- *Ena shaharga ketaman akamni ko`rib kelaman! Ona unga hayron bo`lib qaradi.*

- *Hozirmi? Bayram o`tsin. Keyin borib kelasan. Biznikiga ham bitta yarimta mehmonlar keladi. Men yolg`izlik qilib qolaman.*

- *Boraman! – dedi Zebo onasining gapini eshitmaganday, – hozir ketaman! Nima berasiz, tayyor qiling hozir!*

¹⁹ O`sha asar. 259-b.

- *Otangdan so'ra bo'lmasa. Hali zamon kelib qoladi.*

- *Otam rozi bo'ldilar. Menga pul bering!*

*Sandiqni oching...*²⁰

Shunday qilib o'jar, erka Zebo shaharga yo'l oldi. U qilayotgan ishidan juda mamnun holda avtobus derazalaridan xursand nigoh bilan tashqariga boqardi. Mana nihoyat u tanish uy yonida. Qo'lidagi og'ir yukini bir amallab zinadan olib chiqib, akasi turadigan qavatga ko'tarildi. Akasi Oqiljon uni mamnuniyat bilan kutib oldi. Oqiljon bashang kiyingan, aftidan u yangi yil kechasini kutib olgani qayergadir bormoqchiday.

Zebo akasinikiga kelganidan juda ham mamnun. U xona o'rtasida bezalgan archani ko'rib zavqlandi. Akasi va yangasi ularni yaqin o'rtoqlari yangi yil kechasini birga kutish uchun taklif qilishganini, borishmasa bo'lmasligini, yana Zeboga bir o'zi uyda yolg'iz qolayotganidan noqulay vaziyatda qolishayotganini aytishdi. Zebo hechqisi yo'q, bir o'zim ham otiraveraman, sizlar bemalol borib kelaveringlar deb ularga xafa emasligini bildirdi. Zebo akasiga shunday degani bilan yangi yilni yolg'iz kutishni xahlamasdi. Akasi va yangasi ketgach Zebo zerika boshladi. Bir muddat archa chiroqlarini yoqib zavqlandi, so'ng Zebo ko'chaga chiqdi. U shahar odamlari uyining oldiga tog'dan archa olib kelib, bezab qo'yganidan xursand bo'ldi. Chunki u yashaydigan tog'da archalar juda ko'p va o'z holicha o'sadi. Zebo ko'chada odam siyraklashgani sari yangi yil kirishiga oz qoldi degan xayolga bordi va qaytishga chog'landi. Qaytishga qaytdiyu akasining uyi qayerda, qaysi ko'chada ekanini topa olmay qoldi. Zebo xiyobon bo'ylab boraverdi va tanish bino oldiga kelib shoshapisha uyga kirdi. Uyga kirgach o'ziga bayramona pardoz bermoqchi bo'ldi. Ammo yangi yil kirishiga oz qolmoqda, endi ulgurmaydi.

Zebo uyda yolg'iz o'zi edi. Nimadir uni yig'lashga majbur qildi. U yig'ladi va o'zini ovitish uchun yana ro'paradagi devorlarga boqdi. Deraza oynalaridan

²⁰ Холмирзаев Ш. Танланган асарлар. I том. –Тошкент, Шарқ, 2003. 316-6.

tashqariga qarab, ro'paradagi derazalardan yangi yilni kutib olish uchun bir dasturxon atrofiga yig'ilgan oilalarni ko'rib havasi keldi.

O'zi ham oila davrasida bo'lishni xohlab, dasturxon atrofiga keldi, dasturxonda ichimliklar bor edi. Ichib mast bo'lib qolsa sharmandalik bo'lmasligi uchun piyolasiga vadoprovoddan suv quyib oldi. Huddi oila davrasida qadah so'zi so'zlayotganday mamnun holda nutq so'zladi:

Zebo qo'lidagi qadahni oldinga uzatdi:

- Baxtli bo'linglar! – dedi. Ko'zlaridan tirqirab yosh chiqib ketdi. –Omon bo'linglar, shivirladi u va garangsigan ko'yi so'z aytishda davom etdi:

siz ham, siz ham... Akajon siz ham! Ena!- beixtiyor allaqayoqlarga qarab oldi. – Otajon siz ham.

U o'zi xohlaganday issiq uy, dasturxon bezalgan, allaqanday uyning derazasi yonida yangi yil kechasini kutmoqda edi. Qo'lidagi suvni o'zi xohlagan yangi yil kechasida ichar ekan negadir qo'llari qaltiradi.

Uning qo'llari qaltirashiga sabab u orzusiga qanchalik erishmasin ayni paytda yolg'iz edi.

Zebo har qanday mukammal yangi yil kechasi ham yolg'iz odamga tatimasligini tushunib yetdi.

Ertasiga ertalab Zebo uyiga qaytdi.

Xarakter va uning psixologiyasi tahlili adabiyotning kamoloti, yozuvchining mahorati darajasini belgilovchi bosh omildir. Darvoqe, “Adabiyot –xarakterlar yaratish san’ati” va ayni chog’da ana shu xarakterlar “...dilini bilish, uning sirlarini bizga ochib ko’rsatish –asarlarini biz maroq bilan qayta-qayta o’qiydigan yozuvchilarning har biriga beriladigan ta’rifidagi birinchi so’zlar shularku, axir.”²¹

²¹ Умуров Х. Бадиий психологизм ва ҳозирги ўзбек романчилиги. Тошкент, 1983, 22-б.

Yozuvchi Shukur Xolmirzayevning xarakter yaratish mahorati o`ziga xos. Adib o`z hikoyalariga bolalar obrazini kiritish orqali ularning ruhiyatida yuz beradigan turli xil jarayonlarni o`quvchiga jonli va ishonarli tarzda yetkazib berishga harakat qiladi. Yozuvchi bilan ham fikr va ham nafas bo`lgan zamondoshi O`tkir Hoshimov ham o`z hikoyalariga bolalar obrazini kiritar ekan, ularga o`zgacha tarzda yondashganini ko`ramiz. Masalan, yozuvchi O`tkir Hoshimovning “Bahodir nega adashib qoldi?” hikoyasida Bahodir ismli bolaning o`yinqaroqligi va o`zining e`tiborsizligi tufayli adashib qolishi haqida so`z boradi.

Bahodirning do`stlari Laylo, Aziz, Alisher, Sanjar va Dono birgalikda “Adres aytish” o`ynashardi. Bahodir ularga qarab boshqa o`yin o`ynaylik dedi.

O`zbek oilalarida shunday odat borki, farzandining tili chiqqa boshlaganidan boshlab unga o`z ismini, otasi va onasining ismini, yashash manzilining nomlarini o`rgatishadi. Tabiiyki bolalar o`yinqaroq bo`ladi va o`ynab-o`ynab qo`shni qishloqqa borib qolishi yoki nimadir sabab bo`lib uyidan uzoqroq joyga ketib qolishi mumkin. Shunda ularni adashib qolganini bilgan kattalar ulardan manzillarini so`rashganda ayta olishadi. Ba`zi bolalarning ota-onalari ish bilan yoki turmush tashvishlari bilan bo`lib, bu narsalarni o`rgatmagan bo`lishlari mumkin.

Hikoya qahramoni Bahodir do`stlariga qo`shilib “Adres aytish” o`yinini o`ynashni xohlamay boshqa tomonga yo`l oldi.

– *Yaxshi, - dedi Dono –nechanchi uyda turasan?*

– *Qirq sakkizinchi uy, to`rtinchi qavat, o`ttiz beshinchi xonadon.*

– *Ko`chamizning nomi nima?*

Bohodir u yog`ini eshitgisi kelmadi.

– *Yur, Alish, sirpanchiq o`ynaymiz, - dedi o`rtog`ining qo`lidan tutib.*

– *Nega xalaqit berasan? – Dono uni urishib berdi, - Biz “Adres aytish” o`ynayapmiz.*

- *Men Alisher bilan sirpanchiq uchmoqchiman, - dedi Bahodir. – Yur, ketdik.*
- *Yo’q, - alisher bosh chayqadi. Keyin Dononing savoliga javob berdi.*
- *Majnuntol ko’cha...*²²

Nariga bordida nima qilishini bilmay, qordan shoxi egilib yotgan daraxtlarni, bir kampir yetaklab ketayotgan oppoq kuchukni tomosha qildi. Keyin zerikdi. Bolalar bilan o’ynay desa arazlagan.

U o’zidan-o’zi katta ko’chaga chiqib qoldi. U yerda xuddi Bahodirni kutib turganday qip-qizil avtobus g’uvillab keldi. Shundoq uning oldiga to’xtadi kattakon oynavand eshiklari taraqlab ochildi.

Bahodir qandoq qilib avtobusga chiqib olganini o’zi ham bilmay qoldi. Odam kam ekan. U deraza yonidagi joyga o’tirib oldi.

Bahodir atrofga hayrat bilan boqardi. U avval ko’rmagan narsalarini ko’rayotgan edi.

Avtobus g’izillab yurib ketdi. Deraza ro’parasidan baland-baland uylar, oppoq qorga burkangan daraxtlar, hiyobonlar o’ta boshladi. Ko’chaning nargi tamonidan qator-qator mashinalar, tramvaylar o’tadi. Qandaydir mashina qor supiradi. Maza! Bahodir bolalar bilan o’ynamay, avtobusga chiqqaniga suyunib ketdi. Bir mahal qarasa avtobus bo’shab qolibdi. U ham chopib borib, oldingi eshikdan tushdi. Vuy, odamning ko’pligini! Hamma qalin kiyinib olgan. Hov narida archa bezatib qo’yilibdi. Bir kishi ancha-muncha shar ushlab turibdi. Qizil, ko’k, sariq... Tag’in kattakon bodringga o’xshagan uzun-uzun sharlar ham bor. Bahodir bu odam shuncha shar bilan qanday qilib osmonga uchib ketmaganiga hayron qoldi. “Paltosi og’ir bo’lsa kerak”, o’yladi u.

Bahodirning bu holatini Shukur Xolmirzayevning “Baxtli bo’linglar” hikoyasi qahramoni Zeboning shaharga borishidagi holati bilan taqqoslasa bo’ladi. Zebo yangi

²² Хошимов Ў. Танланган асарлар. III том. –Тошкент, Шарқ, 2011. 342-б.

yilni har yilgidan o'zgacha tarzda kutish maqsadida shaharga o'tlanadi. Uni ham avval shahardagi qish faslining go'zalligi, baland imoratlarning odamni hayratga solayotganligi zavqlantiradi.

Hikoya qahramoni Bahodir bog'chaga boradigan yoshda. O'zi ilk bor yolg'iz yo'lga chiqqani va yashash manzilini bilmasligidan adashib qoldi.

Rost-a, Bahodirning bitta o'zi keldi-ku, buyoqqa. Endi qandoq ketadi! Adashib qoladi-ku. Nima qiladi endi?

U shuni o'ylab yig'lab yubordi.

Birpasda odam to'plandi. Boyagi shar sotib turgan kishi unga bir yo'la uchta shar tutqazdi. Ikkita qizil, bitta sarq. Ammo Bahodir hech nimaga qaramay yig'layverdi.

Ko'chaga ko'p odam yig'ilayotganini ko'rgan bir amaki bu voqeaga oydinlik kiritish maqsadida masalaga aralashdi. U militsiyaga xabar berish haqidagi eng to'g'ri fikrni aytdi.

– Bu bola qaysi avtobusda kelganini bilmasa, adresini bilmasa, militsiyaga oborish kerak. Ota-onasi xavotir olib o'tirgandir.

Bahodir militsiya xonasiga hech kirmagan edi. Qo'rqqanidan yig'isi ham bosilib qoldi. Ayvonli shapka kiygan kishi negadir kulib so'radi.

– Xo'sh, jiyan, oting nima?

– Baho.

– Bahodirmi?

– Ha, - dedi Bahodir hiqillab.

– Familiyang-chi?

– Oyipip. – u yana hiqqilagani uchun familyasini yaxshilab ayta olmadi ham.

– Oripovmi?

– Ha.

- Nechanchi avtobusda keluvding?
- Bilmayman! – Bahodir yana yig’lab yubordi. – Qizil avtobusda!

Zebo Bahodirdan ancha katta va shaharga avval ham kelib ketgan edi. Shunday bo’lsada, u ham shahar aylanaman deb, akasi Oqiljonning uyidan tashqariga chiqadi. Shaharning keng ko’chalarida archalarni tomosha qilarkan, uyga qaytishni o’ylamasdi. Uyga qaytishga to’g’ri kelganda esa, u yo’lni topa olmay ikkilanib qoldi.

Bahodirning uyiga qaytishi uchun militsiya xodimlari ko’p harakat qilishdi. Hatto o’sha mavzedagi bog’chalardan Nazira ismli tarbiyachilarni ham izlashdi.

- *Bog’chaga borasanmi? –dedi militsioner amaki uning boshini silab.*
- *Boraman, -dedi Bahodir hiqqilab.*
- *Yaxshi. Militsioner amaki yana o’ylanib qoldi. - Bog’cha opangning oti nima*
- *Nazila opa.* ²³

Shukur Xolmirzayevning “Baxtli bo’linglar” hikoyasida Zebo bir-biriga rosa o’xshash yo’llardan ikkilana-ikkilana akasinikiga boradigan yo’lni zo’rg’a topadi. Bahodir esa militsionerlar Nazira ismli tarbiyachini qaysi ko’chadagi bog’chada borligi haqida gaplashib, Majnuntol ko’chasida ham shunaqa ismli tarbiyachi borligini aytishayotganlaridagina o’ziga tanish so’zni eshitib qoladi.

-Bildim! – Bahodir o’tirgan joyida qichqirib yubordi. – Majnuntol ko’chasida turamiz, Alish ham bog’chaga boradi.

Militsioner amakining sariq mashinasi uni bir zumda Chilonzorga – shundoq uylarining oldiga oborib qo’ydi. Dadasi bilan oyisi Bahodirni qidiraverib, rosa holdan toyishgan ekan. Dadasi uni yaxshilab jazolamoqchi-yu, oyisi o’rtaga tushdi.

Bahodir adashib qolganidan do’stlari va uyidan o’zi bilmagan holda ancha uzoqlashgan edi.

Zebo esa o’z xohishi bilan ota onasidan uzoqlashgan edi.

²³ O’sha asar. 343-b.

Bahodir ikkinchi bunaqa qilmaydigan, bolalar bilan bekorga arazlashmaydigan, bilar-bilmas avtobusga o'tirmaydigan bo'ldi. Lekin bu hali hammasi emas. Ertasiga u Alisher, Dono, Aziz – hamma o'rtoqlarining oldiga bordida, shunday dedi:

- Kelinglar, “adres aytish” o'ynaymiz shunaqa qilsa odam adashib qolmas ekan.

Bu ikki hikoya qahramonlari bee'tiborliklari tufayli tushub qolgan holatlaridan o'zlariga kerakli xulosani chiqarib olishdi.

Yozuvchi Shukur Xolmirzayevning “Quloqcho`zma” hikoyasi bilan O'tkir Hoshimovning “Chana” hikoyasining qahramonlarini qiyoslasak, qaysidir jihatlari bir-biriga o'xshab ketadi. Nomi keltirilgan ikki hikoya qahramonlarining tabiatida manmanlik, maqtanchoqlik xususiyatlari borligi sezilib turadi. Hikoyalarning yana bir muhim o'xshash jihati shundaki, ikkalasida ham sport oyinlari haqida gap boradi. Garchi biri zamonaviy, biri milliy o'yin bo'lsada. Yozuvchilar o'yinlarni hikoyalarga kiritish orqali hikoya qahramonlari bo'lgan bolalarni bu yoshda birqadar o'yingaroq bo'lishlariga ham ishora qilishmoqda.

Shukur Xolmirzayev hikoyalarida bola ruhiyatini ochar ekan ko'proq ularni qiziqarli holatlarda aks ettirishga harakat qiladi. Bunday paytda yozuvchi bolalar hayotida yuz berishi mumkin bo'lgan voqea – hodisalarga e'tiborini qaratadi. Masalan, maktab tasvirini berish orqali unda bolalarning maktab yoshiga xos bo'lgan jihatlarni ochishga harakat qiladi, qishloq hayotidan lavhalar keltirish orqali esa, tabiat va bola ruhiyatidagi o'xshashliklar yoritiladi. Bolalar turmush tarzining ko'p qismini egallab turadigan jarayon bu-o'yin. Yozuvchi hikoyalarida o'yin epizodidan foydalanar ekan, keltirilgan o'yinning qanday o'ynalishi, o'ynalish qonun-qoidalari haqida ham gapirib o'tadi. Bundan yozuvchining o'zbek milliy o'yinlari turkumiga kiruvchi o'yinlaridan anchagina yaxshi xabardor ekanligini bilib olamiz. Masalan, ozbek milliy o'yinlari turkumiga kiruvchi “Quloqcho`zma ” hikoyasi misolida yozuvchi mahoratini ko'rish mumkin. Hikoyada asosan ikki guruh bolalari to'g'risida gap boradi. Bolalarni ikki guruh deyilishiga sabab unda “shaharlik” va “qishloqi”

bolalar haqida gap boradi. Hikoya “shaharlik” lar vakili bo`lga bola tilidan aytilgan. Bu hikoya shaharning tor ko`chalari tasvirini berish bilan boshlanadi. “Qing`ir-qiyshiq tor ko`chadan chiqardik. Xivich otimizni savalab, kishnab. Qarshimizda maktabimiz. Devorlari somon-suvoq qilinib, ustidan oqlangan. Yog`in – sochinda ohagi ko`chib sarg`ayib qolgan. Bo`g`otlarda chumchuq bolalari chug`ullar, inlarida xas-xashak, qiyqim-siyqimlar osilib turardi. Biz pastdan tomosha qilar, bironta bolasining yiqilib tushishini istardik. Keyin qo`nishib- diydirashib, maydonda shildirab- dumalab yurgan qog`ozlarni yig`ib o`t yoqardik.”²⁴

Hikoya qahramoni maktab o`qituvchilari haqida o`zgacha fikrda. U bashang kiyimlar faqat oqituvchilar uchun, chunki ularning topish-tutishi yaxshi deb biladi. “Bunday vaqtlarda agar yolg`iz bo`lsam, maktabning katta yo`liga qaragan tomoniga o`tib, poydevordan chiqib turgan to`sin uchiga o`tirardim-da, o`tgan-qaytganlarni kuzatardim, oq jujun kitel kiygan, yoki etigidan g`arch chiqayotgan, umuman, bashang engilli odam yo`ldan o`tib qolsa, unga “Salom muallim!” deb baqirardim. Nazarimda barcha bashang kiyimlilar o`qituvchilar bo`lar, faqat o`shalargina shunday kiyinishi kerak edi. Nega shunday o`ylarkanman? Bilmayman. Balki o`shanda muallimlarning mavqei baland, topish- tutishi ham yaxshi bo`larmidi.

Hikoya qahramoni yo`lida davom etar ekan, ko`chaning narigi betida “qishloqi” bolalarni ko`rdi. “Xullas, ko`chani tomosha qilib o`zimga ermak topib turgan chog`larimda, yo`lning narigi betidagi katta hovlidan ikkitalab- uchtalab qishloqi bolalar chiqishar, ular ham sim yog`ochlarga suyanib- gaplashib turishar edi. U hovli “Internat yotog`i” hisoblanar, unda tog`u-dashtlardan uchinchi sinfgacha o`qib, qolganini markaziy maktabda davom ettirish uchun kelgan yigit-qizlar turishar, biz ularni “qishloqi” , o`zimizni “shaharlik” deb atardik.

Ammo bizning yurish-turishimiz, kiyinishimiz ham ularnikidan farq qilardi-da. Masalan, kitel shim deganlarini onalarimiz bizga tikib- tiktirib berardi. Ular ishtonda,

²⁴ Холмирзаев Ш. Танланган асарлар. III том. –Тошкент, Шарқ, 2006, 130-б.

choponda, kunning issig`ida ham telpakda, ko`pincha oyoqlariga ham bir narsa ilmasdan yuraverishardi. ”

O`zini shaharlik deb biluvchi hikoya qahramoni “qishloqi” bolalarning yurish turishi, hatto kiygan kiyimlarini ham ermak qiladi. To`g`ri, aksariyat bolalar atrofdagilarning kiyinishlariga qarab muomala qilishadi. Masalan, maktabda kim yangi, chiroyli kiyinsa o`sha eng zo`r, boy, kim eskiroq, xunukroq kiyinsa, u kambag`al, bechora deb qarashlariga o`zimiz ham ko`p guvoh bo`lganmiz. Albatta, bu salbiy xarakter bo`lib, odamlarning tashqi ko`rinishiga qarab emas, balki ichki dunyosi, qalb go`zalligiga qarab samimiyligi va odobiga qarab ularga baho bersak, farzandlarimizni ham shu ruhda tarbiyalasak to`g`ri ish qilgan bo`lamiz. “Mening “ermak” larimning eng qizig`i –o`shalar edi, desam bo`ladi. Biroq ular ham biz “shaharlik” larga qiziqib qarashar, goho shundoq ro`paramizga kelib- ariqning labiga chunqayib o`tirishardi, goho maktab maydonida chillakmi, koptokmi o`ynayotgan bo`lsak, bu yoqqa o`tib, bir chetdan kuzatishar edi. He, oshandoq paytlarda juda gijinglab ketardik-da: o`zimizni ko`rsatish uchun!

Shu bilan birga biz ularni pisand qilmas, ulardan qandaydir “ustun” ekanimizni bildirib turardik: kiyinishidan kulardikmi-e, burnini chuqilayotgan bo`lsa, “qonatib qo`yasan” dermidik, ishqilib, bir qitmirlik qilardik. Sho`rliklar angrayib qolishar, ba`zisining uyalgani ham sezilardi, albatta. Ha, ular sodda, endi o`ylab qarasam , tog`u-dasht kabi pokiza ekanlar. Keyin bizdan ba`zi yomon odatlarni ham o`rgana boshlashdi. Qolaversa, bizning muomalamizga javoban ularda e`tirozlar tug`ilar, bu e`tirozlar goho harakatlarida ham ko`rina boshladi.”

Bu hikoyada Jovli ismli “qishloqi” bir bolaning portreti berilgan. Uni hikoyachimiz quyidagicha tasvirlaydi: “Xush ular ichida bitta g`alati bola bo`lardi. Past bo`yli, yelkalari keng, kallasi xumdek, boshida telpagi bo`lganda bo`yni ko`rinmas, telpakli kallasi naq yelkasiga qo`ndirib qo`ygandek tuyilardi. U yerdan bir narsa topadigandek boshini egib yurar, quchqornikidek do`ng peshonasi ostidan olayib qarardi. Shu qarashi ham menga yoqmas, qo`shnim-sinfdoshim Erkin bo`lsa,

uni ko`rganda, ko`zini g`ilay qilib, bir narsani suzadigan yosh buqachadek boshini qiyshaytirib o`tirardi.

Biroq u bolaning yana alohida bir a`zosi bor ediki, har qanday odamning ham diqqatini tortadi. Bu – unung quloqlari edi. Shalpang, shalpanglarning shalpangi! Lof bo`lsa ham, polvonning kaftidek kelar, tepadan bosib turgan telpak ostidan ikki yonga chiqib turganini ko`rsangiz kulib yuborar edingiz.”

“Shaharlik” hikoya qahramoni do`stlari Erkin, Toshkenboy, Istat va Sultonlar bilan birga Jovlining beo`xshov qiliqlarini mazax qilib, ustidan kulishdi. Jovli ularga nafrat to`la ko`zlari bilan qaradi. Ular esa masxara qilishni to`xtatish o`rniga avjiga chiqaraverishdi. Natijada, “shaharlik” va “qishloqilar” o`rtasida daxanaki jang bo`ldi, “shaharliklar” ko`p edi. Ammo Jovli ularga qarshi yolg`iz o`zi olishdi. Jovlining sheriklari qo`shilmay gezarib, o`zlarini ortga tortib tomashabin bo`lib turishdi. Ikki guruh o`rtasidagi bu jangni internat tarbiyachisi Farmon aka to`xtatishga muvaffaq bo`ldi. Farmon aka ham shaharliklardan hayiqqanidanmi yoki boshqa sababmi ularni jangning sababchilari ekanini bilsa ham, Jovlini jazoladi. Ularni esa, boringlar boyvachchalar, deb haydash bilan kifoyalandi xalos.

Janjalni uzoqdan kuzatib turgan kishilardan biri qahramonimizning uzoqroq qarindoshi chiqib qoldi. U kelib ularga: “Qulog`ini rasvo qildingku, jiyan,-deb kuldi. Keyin sherigiga murojaat qildi: -Agar shu bola quloqcho`zmaga kirsam xudo bir-a, qulog`idan ayrilib chiqar. Rosa kulishdik.”

“Berdi laqqi” laqabli bu kishi jiyaniga shunday degandan ko`ra yaxshiroq nasihat qilsa bo`larmidi. Masalan, uni noto`g`ri qilganligi, birovning shaxsiyatiga noo`rin va nojo`ya hatti-harakat qilayotganligini tushuntirsa bo`larmidi.. Ammo, Berdi laqqi yoshi katta bo`lsa ham aqlan va ma`nan ancha g`or ekanligini ko`rsatdi. Bir bolaga yetti mahalla: ham ota, ham ona degan aqidaga amal qilinsa, bir bolaning tarbiyasi yaxshi, yo yomon bo`lishi faqat ota-onaga emas, uni o`rab turgan muhit kishilariga ham o`ziga xos ma`suliyat yuklaydi. Hozirgi voqeada Berdi laqqining ko`ra bila turib o`z jiyaniga bu noto`g`ri de-yish o`rniga, unga qo`shilib kulayotgani,

atrofdagilar, mahalladoshlar doim ham yaxshi bo'lavermasligi, ba'zan ularning o'zlari tarbiyaga muxtoj bo'lishlari ham mumkinligini bildirmaydimi? Berdi laqqiga o'xshaganlar oramizda ko'plab topiladi.

“Quloqcho`zma” o`yini haqida biroz tushuntirish bersam. Odatda, to`y-marakalarda kurash bo`ladi, ko`pkari ham, piyoda uloq ham. Ammo bular boshlanishidan oldin, ayniqsa, kurashdan oldin bakovullar bir qarich toychoqlarni davraga chiqarishadi:nafslambiri, shu bolakaylar kurashni boshlab berishadi. Ha, endi toy-toy bo`lgan bolakayning qo`lidan yetaklab yoki ko`tarib opkirishlari, uni tengqurlari bilan qo`l ushlatib tushuntirishlar, keyin o`rtadagi zotni e`lon qilib, har ikkisiga ham oq fotiha berish va olomonga: “Folon palvon bilan piston polvon olishadi!” deb hayqirishlar ko`p zavqli bo`ladi-da! Ajab, bir qa-rich mishqilarni “polvon” deb atashadi! G`olib chiqqanini – “Piston polvon bosdi!” deb olqishlaydi. G`olib polvon ham olgan zotini (ro`molmi u, matohmi) yelkasiga yelvagay tashlab, davrani bir aylanadi... Shundan boshlansa kerak-da – milliy kurashga qiziqtirish, kurash deganini yoshlarning murg`akligidan ongiga singdirish, millatga xos urf-odatlarini avlodma-avlod o`tkazish...

Ba`zi davralarda kurash boshlanishidan oldin “quloqcho`zma” o`yiniga asosan o`smirlar taklif etiladi. Va tegishli gap- so`zlardan keyin o`rtasidan tutilgan ro`molcha qurga otvoriladi. Shunda, tabiiy, qo`yilgan sovrin ham aytiladi. Masalan: “Bir juft kalish!” yo “O`n so`m puli bo-or!” deyiladi.

Keyin bosa-bosni ko`ring. Tugun o`rtaga kelib tushishi bilan hamma unga yopiriladi. Albatta, kimdir uni oladi. Oladi-yu, qulog`ini “beradi”. Ya`ni qo`li yetgan bola uning qulog`ini cho`zadi-buraydi, tortadi. Alqissa, u bola tugunni yo bironta sherigiga uzatadi yoki otvoradi. Shunday qilib, tugun qo`ldan qo`lga o`taveradi. Bu borada necha-necha yigitchalar quloqchalarini ushlab (cho`zilgan quloq qizib ketadi), uf-uflab yurishadi. Lekin o`shalar ham yana...

Xo`sh, oqibat kim g`olib chiqadi? Tugilgan ro`molchani bakovulga keltirib bergani g`olib, deb o`ylaysizmi? Yo`q. Bu-qiyin emas. Qiyini, ha, eng mushkuli-

o'smirlardan ko'p kuch-quvvat, tirishqoqlik va matonat talab etadigan maydon o'rtasiga qoqib qo'yilgan yoki ikkita baquvvat yigit ushlab turgan silliq xodaga o'rmalab chiqish va tepaga yetib, tugunni ko'rsatishdir.

Bu ish har kimning qo'lidan kelmaydi:pochangdan tortib tursa, etigingdan tortsa, butingga osilsa... Tepaga chiqib bo'psan! Tag'in silliq yog'ochga tortilib...

“Quloqcho'zma” ana shu!²⁵

Berdi laqqi shu o'yinni tilga olib, shalpangquloq ishtirok etsa, quloqsiz qolishini aytgan edi.

Darvoqe, bu kishi ko'p gapdon- mahmadona bo'lgani uchun “laqqi” degan laqab olgan. Shu bilan birga to'y-tomoshalarda bolalar o'yini musobaqalariga bakovullik ham qiladi.

Hikoya qahramoni o'zini qancha jasur, qo'rqmas tutishga harakat qilsa ham, kechasi ko'chaga chiqishdan qo'rqadi. Chunki, “shaharliklar” dan ham zo'rroq guruh: “shaharistonliklar” bor edi. Kechasi-tunda katta ko'chaga chiqib, aylanish yoki kinixonaga borish bizga man etilgan edi, to'g'risini aytsam,o'zimiz ham chiqishga qo'rqar edik. Sabab: biz “shaharlik” lardan ham zo'r “shaharistonliklar” bor, ular ota-onadan yetim qolib, bezori bo'lib ketganlar shaykasi ediki, kap-katta kishilarni ham pana joyda tunab qo'yishardi.

Urush kasriga ota-onadan ayrilib qolgan yetim-yesirlar 60-yillarning boshida ham “shaharning atamanlari” edi.

Bir kuni Erkin kinixonada Jovlini ko'rib, u bilan urishib qolganini aytib, uni boplab tazirini bermasak bo'lmaydi deb qoldi. Hikoya qahramoni rahbarligida to'rt jo'ra internatga yo'l olishdi. Ular internatda Jovlini to'xtatib, uni “Kanat”da osilib turgan ipga chiqishga majbur qilishdi. “Kanat”ni bilasizlar: ikkitasi yerga, bittasi tepaga ko'ndalang qoqilgan uchta yo'g'on arqon, oq arqon. Ipdan eshilgan.

²⁵ O'sha asar. 134-b.

O'shani mahkam ushlab, faqat bilaklarning-u barmoqlarning kuchi bilan tortilib-tortilib tepagacha chiqiladi. Keyin, qanday tushish- o'z ixti-yoringizda. Shart shuki, oyog'ing kanatga o'ralmasligi kerak.²⁶

Jovli bir marta bajardi. Ular yana chiqasan deb majburlashgach, Jovlining jahli chiqib Erkinning quloqlariga tarmasha ketdi. O'rtada yana jang boshlandi. Jovlini hech kim himoya qilmadi, yana avvalgi safargiga o'xshab yolg'iz qoldirishdi. Negadir sheriklari hech uni himoya qilishmas edi. Jovli ham bunga o'rganib qolganday o'zi, ular bilan urushaveradi. Shu payt hovliga qizlar keldiyu vaziyat o'zgardi qoldi. "Shu payt hovliga uch-to'rtta qizlar kirib keldi-yu, hamma ish buzilib ketdi.

-Nimaga qarab turibsizlar, hoy? O'likmisizlar? Jovlining qulog'iga rahmlaring kelmaydimi?- deb ustimizga yopirilib kelishdi. Buni ko'rib, anavi "tomoshobinlar"ga jon kirdi-yu, birdaniga bizga tashlanib qolishdi-ku? "

Shaharlik zo'ravonlarning popuklari pasayib, orqaga qaytishdi. Qaytishmaganida balki, quloqlaridan ajralishib qolisharmidi!

Xalqimizda qiziq bir odat bor. Bu to'ylarda milliy o'yinlarni musobaqa shaklida o'tkazish. Masalan:kurash, quloqcho'zma kabi. Kurashda yoshiga qarab gilamga chiqishadi. G'oliblar sovrinlar bilan taqdirlanishadi. Hozirgi kunda bunday odatlar chekka-chekka qishloqlarimizdagina saqlanib qolgan. To'g'ri, shahar joylarda ham sport musobaqalari tez-tez o'tkaziladi. Lekin qishloq joylardagi kurash musobaqalarining gashti boshqacha bo'ladi. Unda qandaydir jo'shqinlik, ko'tarinkilik bo'ladi.

Yaqin o'tgan tariximizgacha taklifnoma, telefon bo'lmagan. To'y qiladigan kishilar jarchilar orqali qilinadigan to'y haqida jar solib, odamlarga xabar berishgan. Hozirda taklifnoma, telegramma ancha rivojlangan bo'lsada hali ham, ba'zi chekka qishloqlarimizda jarchilar to'ylarga, hasharlarga xullas barcha to'yu-marakalarga

²⁶ O'sha asar. 134-b.

aholini chaqirish bilan shug'ullanishadi. Bu bir tomonlama yaxshi odat. Chunki, hozirda odamlar to'ylarga tanlab aytiladi. Jarchilar esa mansabiga yoki mavqeyiga qaramaydi. Hikoya qahramoni yashaydigan qishloqning etagida yashovchi Qirg'iz chopag'onning uyida to'y bo'layotgani haqida qishloqqa jarchi xabar qildi. Jarchini eshitgan barcha Qirg'iz chopag'onnikiga to'yga o'tlanishdi. To'yda yoshiga qarab kurash musobaqasi o'tkazildi. To'yga taklif qilingan "kattalar" kelavermagach kurash tushish navbati nomdor polvonlarga kelib qoldi. Hali rahbarlar kelmaganligi sababdan to'yga kelganlarni zeriktirmaslik uchun Berdi aka endi navbat "quloq cho'zma" o'yiniga deb yubordi. "Qisqasi polvonchalar kurashib bo'layozdi chog'i. Berdi aka dadilroq bolalarni davraga torta boshladi shu payt bir chetda ko'rpachada o'tirgan oq saqollar bakuvulni chaqirib qolishdi. Keyin ma'lum bo'ldiki bu ahvolda hademay katta palvonlarning ham chiqiqshiga to'g'ri kelarkan... Shuning uchun "olish"ni biroz to'xtatib, boshqa bir o'yin boshlashga kelishilgan ekan. Hikoya qahramonimiz "quloqcho'zma" o'yiniga navbat kelganini eshitib xursand bo'ldi-yu, ammo to'yga kelgan bolalarning ko'pchiligi tog'u-toshda o'sgan baquvvat va quloqlari ham o'yinga moslashgandek katta-kattaligini ko'rib hafsalasi pir bo'layozdi.

*Qishloqilar orasida Shalpangquloqni ko'rdim-u, entikib ketdim. Lekin shu lahzadayoq vahima tushdi: ular-ko'pchilik, buning ustiga bari baquvvat. Tog'u dashtda o'z boshiga yayrab o'sgan-da! Agar shu kuchi, inoqligi ustiga g'irromlik ham qo'shilsa, bas, sovrin ularda ketadi.*²⁷

Bolalar guzar-guzar guruh tuzishib o'yinga tushib ketishdi. Agar maydonda tarafma-taraf bo'lishsa, bu usulni-"g'irromlik" deb bo'lmas edi. Xokkeyda ham, beysbolda ham shu usulni qo'llashadi. Biroq, "Quloqcho'zma"ning ulardan farqi- har kim o'zi uchun kurashadi ayni chog'da g'olib chiqqan bolaning mahallasi ko'kragini ko'tarib "biz yutdik" deydi. Guzar-guzar bo'lib o'ynashgani bilan o'yinda barcha o'zi yolg'iz o'ynaydi. Ammo guzardoshlari o'ynayotgan har bir bolani himoya qilib,

²⁷ O'sha asar. 141-b.

qo'llab quvvatlab turishadi. Mahalladoshlarining qo'llab turishi o'yinchilarga ruh bag'ishlaydi, kuchiga kuch qo'shiladi.

Barcha o'yinlarda bo'lib turadigan narsa bu g'irromlik. O'yinda halol o'ynab yutishiga shubha qilayotgan ba'zi bolalar g'irromlik orqali o'yinda g'alaba qozonmoqchi bo'ladilar. O'yinda g'irromlikka yo'l qo'ymaslik uchun o'yin boshlanmasdan uning qonun qoidalari davrakash tomonidan tushuntirilib o'tiladi va shundan so'nggina o'yinni boshlashga ruxsat beriladi. Hozir bo'ladigan quloqcho'zma o'yinida bakovillik qiladigan Berdi aka o'yinning qoidalari haqida to'xtalib o'tdi. "Eshitmadim demanglar, o'yin qoidasini buzganlar davradan chiqib ketadi! O'yinda birov birovni urmasligi kerak, mushtlamasligi, tepmasligi kerak. Unda g'irromlik bo'ladi!.. Faqat quloq cho'zish hisob!" Tomoshabinlar bu o'yinni zavq bilan tomosha qilishadi. Bunga sabab o'yinchilar tugunni olish uchun bir-birining qulog'idan tortishadi. Bu holat esa chetdan qaraganlarga qiziq va kulgili tuyiladi. "Qiziq: qo'lga tugun tekkan bola yiqiladi. Keyin qulog'i qo'lma-qo'l bolib... Goho tugunni olgan bola dodlab yuboradi: "voy biqinim!" goho qur xuddi yirtqich qushlar galasidek dam nariga ko'chadi, dam beriga ko'chadi...

"Shaharliklar" va "qishloqilar" o'rtasida qizg'in o'yin borardi. Shaharliklar g'irromlik yo'lga o'tib tugunni bir-biriga oshirishardi. Tugun Erkinda edi. U Toshkenboyga, Toshkenboy Istatga Istat esa yana Erkinga oshirdi. Bir mahal Erkinning qo'lidagi tugun yo'qolib qoldi. Shunda tugun menga otildi. Ilib oldim-u aylanib chopaman deb uchib tushdim ammo tugunni yana Erkinga berishga ulgurdim. Erkin tugunni kissasiga tiqdimi, ko'ylagingining yoqasidan ichkariga soldimi ishqilib: qani ro'molcha? Kim oldi, hoy? Deb hayqira boshladi o'zi. Hamma bir zum turib qoldi. Shunda Erkin birdaniga og'ochga yugurdi.

Erkinni og'ochga qarab yugurganini ko'rganlar tugun unda ekanligini bilib qolishdi. Bu yerda Erkin qoidaga xilof ish qilayotgan edi, bu esa g'irromlik degani. Shu mahal Berdi aka o'yinga aralashib qoidaga amal qilinglar, deb baqirib qoldi. Nihoyat hikoya qahramoni qo'rqqan narsa sodir bo'ldi. U tugun Shalpangga, yani Jovliga tegishidan qo'rqardi. Qarangki hozir tugun Jovlida "Nihoyat, ro'molcha-

tugun shalpangni qo'liga tegdi-yu yuragim "Shuv" etib ketdi. Nazarimda, tugunni undan olib bo'lmaydigandek, u o'lsa o'ladiki..."

Qovun-qovundan rang oladi, degan gapda jon bor. Shaharlik shovvozlarimiz o'zlarini naqadar abjirliklariyu, g'irromliklari bilan harakat qilishmasin sodda qishloq bolalari ham ulardan har sohada, hatto g'irromlik bilan g'alabaga intilishda ham ulardan qolishmasliklarini isbotlashdi. Hikoya Qahramonining qo'rquvi borgan sari ortsa ortdiki kamaymadi.

*Ana shu daqiqada uning kanatga tortilishni o'rganib ketganini esladim-u, og'zimdan shu gap chiqdi: "og'ochga yaqinlashmasin!" demak, uning qishloqdashlarini ham og'ochga yaqinlatmaslik kerak. Men yuqorida bu bolalar bizdan ba'zi yomon odatlarni o'rgana boshladi, devdim ana shulardan biri-shu yerdayoq bilinib qolgan, ya'ni birining qo'liga tugun tushdimi uni o'rab olishar, shubhasiz bu g'irromlikni shu yerda o'rganib olishgan edi.*²⁸

Tugun Shalpanгда edi. Uni har tamondan qancha qiynashmasin u hech chekinishni istamasdi. Shunda qo'shni mahalla bolalari o'rtağa yorib kirishdi. Va shalpangni: biri tizzasi bilan biqiniga niqtaydi, biri bo'yniga uradi, bittasi oyog'ining ostini qitiqlayotganini ham ko'rdim, lekin Shalpanг xuddi suv ostidagi toshlar oralab suzayotgan g'avvosdek manzilga yaqinlashib bormoqda edi.

Xuddi shu o'yinda Jovli o'zining qay darajada irodali, chidamli va sabrli ekanini barchaning ko'z o'ngida isbotlab bera oldi. Jovlining shu darajagacha kelishiga ham aslida atrofdagilar sababchi. Jovli o'zining chidamli ekanini ko'rsatish, yoki sovringa ega bo'lish uchun emas, g'urur va or uchun shiddatli o'yin olib bormoqda. O'yindagi g'irromliklar Jovlini ancha holdan toydirdi. Ammo ortga chekkinishni o'ylab ham ko'rmasdi.

²⁸ O'sha asar.143-b.

*Nima deysizki, Shalpang og'ochga yetdi, uni ushladi, asta-sekin tikka bo'ldi. Pastga sirg'alib tushgan Erkin uning biqiniga bir soldi-yu, haqiqiy g'irromlik boshlanib ketdi: birov uning etagidan tortadi, birov yoqasidan, birov oyog'idan.*²⁹

Tugun og'zida ekan. Kimdir tumshug'iga bir tushirdi, burnidan qon oqa boshladi. Shundagina shalpang ingrab yubordi va... sheriklari bolalarga tashlanishdi. Shalpang shahd bilan og'ochga tirmasha ketdi. Jovlini mag'lub qilishga qancha urinishmasin u bor kuchi bilan o'g'ochga chirmashardi. Bir mahal kutilmaganda Erkin Jovlining qulog'iga osilib oldi. Tortilla-tortila og'riq sezmay qolgan bu quloqlar Erkinni ko'tarib borardi. Jovli odam bo'yi ko'tarilganda Erkin o'zini pastga otdi, mag'lub bo'lganiga chidayolmay yig'lab yubordi. Shalpang oyoqlarini qimir etkazmay huddi arqonga tortilayotganday xodaga ko'tarilib borardi. Xoda bolaxonali uy baravari edi. Nihoyat, u yog'ochning uchiga ko'ragini tirab qoldi-da, ro'molchani tepaga ko'tardi xuddi bayroqni ko'tardi. Pastda shunaqayam qarsak bo'lib ketdiki, go'yo Shalpang butun olomonning orzusini ro'yobga chiqargan edi. Ha, qahramondek edi, buni tan olmaslik...

Ha, Shalpang g'olib chiqdi. Uning siymosida Iroda, Kuch-quvvat, Chidam va Tirishqoqlik g'olib chiqdi. O'yinda Jovli g'olib bo'ldi. Unga g'oliblik sovrinlari topshirildi. "U pastga sirg'anib tushgach Berdi aka dast ko'tarib olib davrani aylantirdi-da, oqsoqollarning oldiga eltdi. Shalpang odatga ko'ra tiz cho'kdi. Chollar uni duo qilishdi. Keyin Berdi aka uzatilgan beqasamni uning yelkasga yoyib tashladi. Shunda deng, to'y egasi Qirg'iz chobag'on egnidagi qora zar choponni yechib, Shalpangni ustiga yopdi." Jovli bu o'yin orqali barchaning ko'nglidan joy oldi. U insonlar o'zaro munosabatda tashqi ko'rinishga qarab muomala qilishning oxiri afsuslanish bilan tugashini isbotlay oldi, bu o'yindan chiqarilgan xulosalardan eng muhimi shaharliklar endi qishloqlar bilan do'stlashib, hatto birgalikda shaharistonliklardan ham qo'rqmasliklarini bilashadi.

²⁹ O'sha asar. 144-b.

Yozuvchi O'tkir Hoshimovning "Chana" hikoyasida esa bola ruhiyati quyidagicha tasvirlangan.

Farhodning dadasi unga juda mehribon. O'g'lim do'stlaridan kam bo'lmasin, ularning oldida iymonib yurmasin deb, chana olib berdi. Otasi Farhodni do'stlaridan zo'rroq bo'lishi, o'zining boyligini ko'z-ko'z qilish uchun emas, balki chana olib berish orqali o'g'lining qishki ta'tilini bekor

o'tkazmasdan, qish mavsumida o'ynaladigan o'yinlarni o'ynashi uchun, do'stlari bilan birgalikda ahil- inoq bo'lib yurishi uchun olib berdi.

Farhodga dadasi chana olib keldi. Tag'in qanaqa deng? Orqasida suyanchig'i bor. Sirpanchiq qanotlari yaraq-yaraq qiladi.

–Chanangni-chi, o'rtoqlaring bilan uchgin, xo'pmi? –deb tayinladi dadasi. Farhod ertasiga nonushta qilar-qilmas chanasining ipidan tortib, ko'chaga olib chiqdi. Osmondan kapalakqor yog'ar, bolalar qiy-chuv ko'tarib o'ynashar, birov sirpanchiq uchar, birov qorbobo yasar edi.

*Ular Farhodni ko'rishlari bilan atrofini o'rab olishdi.*³⁰

Farhodning otasi o'g'lining kelajagi uchun eng to'g'ri ishni qilgan edi. Chunki kelajakda Farhoddan yaxshi sport ustasi chiqishi mumkin, hech bo'lmaganda sport bilan muntazam shug'illanish sog'liq uchun foydali, ammo Farhod o'z xudbinligi, qizg'anchiq va manmanligi tufayli do'stlarini ranjitib qo'ydi. Dadasi do'stlaring bilan birga o'yna, desa ham Farhod o'zi yolg'iz o'ynamoqchi bo'ldi, hatto chanasini tepalikka olb chiqib ikki-uch marotaba uchdi ham.

Tepalikning eng ustiga chiqib chanaga o'tirib oldi. Keyin oyog'i bilan bir siltagan edi, chana shuvillab pastga uchib ketdi. Farhodning yuziga qor uchqunlari urilar, chana qushdek uchib borar, uning qulog'i ostida shamol g'uvillar, ammo sovqotmas edi. Mazza!

³⁰ Хошимов Ў. Танланган асарлар. III том. –Тошкент, Шарқ, 2011. 346-б.

Har qanday qiziq o'yin ham bir kishi bilan qiziqarli bo'lmaydi. Farhod ham yo'lg'iz chanada uchib zerikdi, endi nima qilsam ekan deb do'stlari oldiga, birga o'ynashni taklif qilib bordi.

Farhod yana tepalikka chanasini sudrab chiqdi, keyin pastlikka uchib tushdi. Besh-olti marta shunday qilgandan keyin charchab qoldi. Pastlikka sirg'anib tushish mazza edi-yu, chanani yuqoriga sudrab chiqish yoqmasdi. Tekis joyda uchay desa, birov chanani tortmaguncha sirpanmas ekan.

Farhod chanasini sudrab, bolalarning oldiga bordi.

–Yur, Bahodir, -dedi o'rtog'ini chaqirib. –Mayli, galma-gal uchamiz. Bir gal sen tortasan, bir gal men.

–Kerakmas! – Bahodir qo'l siltadi. – Men bolalar bilan o'ynayman.

Farhod chanasining ipidan ushlagancha qorbobo yasayotgan qizchalarning oldiga bordi. Dildora endi qorboboning qo'lini yasayotgan ekan.

Farhodning do'stlari Dildora, Bahodir va Shavkatlar juda yaxshi bolalar. Ular o'z narsalarini bir-birlaridan qizg'onmas, o'yin davomida ham tarafkashlik qilmasdan ahil va inoq bo'lib, birgalikda, hamjihatlikda o'ynashadi. Farhod ham dadasi chana olib berguncha do'stlari bilan yaxshi munosabatda edi. Chanali bo'lgach manman, qizg'anchiq bo'lib qoldi. To'g'ri, bunday holatni bu yoshdagi bolalarda ko'p uchratish mumkin. Chunki bu yoshda bola tabiatida hali xudbinlik belgilari mavjud bo'ladi. Bola ongida barcha narsa meniki, barchaning e'tibori menda bo'lishi kerak degan fikr mavjud bo'ladi. Ota-ona va atrofdagilarning bolaga qiladigan muomalasi va beradigan tarbiyasi orqali bola sekinlik bilan ruhiyatidagi xudbinlikni yenga boradi. Agar ota-ona bee'tiborlik qilsa, farzandiga o'z vaqtida kerakli tarbiyani bera olmasa, bola o'z holicha voyaga yetsa, katta bo'lgach ham o'z xudbinligi tufayli ko'p aziyat chekishi, atrofidagilarni ranjitgani bois borgan sari yolg'izlanib qoladi. Bir shaxsning kamol topishi uchun jamiyat, tabiat umuman, u yashab turgan muhitdagi har bir kishi va har bir narsa ta'sir ko'rsatadi. Shunday ekan biz shu jamiyatning faol a'zosi sifatida atrofimizda bo'ladigan voqea hodisalarga befarq bo'lmasligimiz

lozim. Chunki bizning loqaydligimiz oqibatida ko'p salbiy oqibatlar kelib chiqishi mumkin. Farzandlarimiz tarbiyasida ham e'tiborli bo'lish talab etiladi. Bolalar tarbiyasiga e'tibor bu bizning va davlatimizning ertangi kuni uchun qo'yilgan poydevordir. Poydevor qancha mustahkam bo'lsa, uni ustiga qurilgan imorat ham shuncha mustahkam bo'ladi va ko'p yillar qad ko'tarib turadi. Farhodning otasi ham o'z o'g'lining tarbiyasiga e'tiborli. U o'g'liga chana olib kelganida uni do'stlaring bilan o'yna deb aytadi. Shunday deyishining o'zi ham o'g'lining tarbiyasiga befarq emasligi, atrofdagilarga yaxshi munosabatda bo'lishga undashidir. Otasi Farhodga chanang sinib qoladi, uni faqat o'zing avaylab uchgin desa bo'lardi. Lekin unday demasdan, balki do'stlaring bilan birga o'ynagin deydi. Farhod otasiga xo'p, do'stlarim bilan o'ynayman deb, ko'chaga chiqsada chanasini qizg'onadi. Qizg'onchiligi oqibatida yolg'izlanib qolayotganligini Farhod do'stlari unga qilayotgan munasabatidan anglab yetadi va o'z xudbinligini yengib, ular bilan birga chanasini uchish uchun olib boradi.

Dildora, Bahodir va Shavkat Farhoddan ranjishgan edi. Ular Farhodga e'tibor ham qilmay, o'z o'yinlarini o'ynashni davom ettirishardi. Farhod esa qilgan ishidan uyalib ularning o'yinlarini jim kuzatib turdi. U yolg'izlanib qolishiga qizg'onchiligi sabab ekanligini tushunib yetdi. *Dadasi nema uchun "Chanangni bolalar bilan birgalashib uchgin", - deganini endi tushundi. Sekin- sekin bolalarning oldiga bordida, chanani ularning o'rtasiga surib qo'ydi.*³¹ Do'stlari esa uni bu vaziyatda kechirish kerakligi, u boshqa bunday qilmasligiga ishonishdi va uni ham o'z saflariga qo'shib, birga o'ynay boshlashdi. Bolalar bu safar yo'q deyishmadi. Birpasdan keyin Farhodning yaltiroq chanasi yana tepalikdan shuvillab tusha boshladi. Endi unda bolalar, qizaloqlar mazza qilib uchishar edi.

Bolalar bir xil muhitda o'sishiga qaramay har xil tarbiya ko'rishadi. Chunki ularning dunyoqarashlari har xil bo'ladi. Masalan, Nazrullani olaylik. U juda yaxshi bola. Oilada yolg'iz onasi bilan turadi. U tabiatan juda bosiq, ko'ngilchang bola. Nazrullaning bunday bo'lishiga balki onasi bilan yolg'izlikda kun kechirishi, balki

³¹ O'sha asar. 347-b.

otasi vafot etkach onasini ishongani faqat o'zi ekanligini his qilib shunday bosiq bo'lib qolgandir.

*U yerda Nazrulla degan o'rtog'imning tomi-keksa tollarga ko'milgan uylari bor. U yolg'iz onasi bilan yashardi. Otasi urushda o'lgan. Qiziq bola edi u, kim ovga yur desa, ergashib ketaverardi. Bu yoqda maktab bormi, dars bormi-o'ylab o'tirmasdi. Uning miltig'i ham yo'q edi. Lekin u nolimas, onasiga miltiq olib ber demas, ovga borayotganlarga ergashib ketaverardi. Ovga borgach kiyimlarimizni poylab, olov yoqib o'tirar, ovimiz baror olgan bo'lsa bizdan ortiqroq quvonardi.*³²

Yozuvchi Nazrullani xarakterini ochib berishda uning do'stidan foydalanadi. Hikoya ham Nazrullaning do'sti tilidan aytiladi. Bu bola ham u darajada yomon bola emas. Faqatgina sal maqtanchoqroq va qo'shnilari oldida o'zini zo'r ekanligin ko'rsatmoqchi bo'ladigan bir bola. "Shosha-pisha uyga kirib kiyindim yarimta nonni bo'lib, kistaga soldimda, miltiqni olib devor osha ketdim. Bunday vaqtda birov ko'rmasin deysan. Lekin, albatta ko'radi devorlarning tagi bilan pishillab ketayotsam tup etib yelkamga bir lo'mboz qor tushdi. Nariga o'tib qaradim. Nurmat Kachal degan odam kuraginging sopini ko'krigiga suyab qo'yib hovichiga quxlayapti." Hikoyamiz qahramonlari tog'li hududda yashashadi. Shu boisdan ular qish kunlari yig'ilishib tog' bag'riga kaklik oviga borib turishadi. Nazrulla kakiliklarga u darajada ishqiboz emas. Ammo do'stlari taklif qilganda sirayam yo'q demaydi. Uning bu odati do'stlariga ham yoqadi. Mana busafar ham Nazrulla do'stining rayini qaytaraolmas, qor yog'ayotgan bo'lishiga qaramay u bilan ovga chiqishga rozi bo'ldi. "Qor bo'ralaydi. Tog' ko'rinmaydi. Lekin, oyoqlarimiz adashmay olib barayapti bizni. Do'nglikka chiqib bordik bu yerda tuman bor edi. Shuning uchun qor siyrak va yumshoq yog'ardi. Atrofga quloq soldik. Kaklik sayrashini eshitilmadi. Engashib, qorni ko'zdan kechirdik, iz ham yo'q edi.

Ular hech narsa topa olishmadi. Havo juda sovuq. Bolalar bir kamarga o'tin yoqib nonlarini yeyishdi. Va qishloqqa quruq qo'l bilan qaytishdi. Biroq yo'lda

³² Холмирзаев Ш. Танланган асарлар. I том. –Тошкент, Шарқ, 2003. 12-б.

ularning omadlari kelib qoldi. Ammo qishloqqa olib tushadigan, ertalabki do'nglikka chiqqan ham edik, chap tomonimizdan, "kak-kak..." degan ovozlarni eshitib qoldik. Negadir men jahl bilan Nazrullaga "yot!" dedim-da, cho'nqayib yugura ketdim. Do'nglikning labiga- yerdan yorib chiqqanday uyum toshlar yoniga borib, pastga mo'ralasam, bir gala kaklik turnaqator tizilib, yonbag'irni qiyalab boryapti. Qoq belini ko'zlab otdim. Kakliklar chug'urlab ko'tarildi-da, qanotlarini dumlari tomon qayirganicha do'nglikning orqasiga o'tib ketishdi. Faqat bittasigina yerga tusha boshladi. Otdim pastga o'zimni. Dumalay-dumalay, yiqila-surila kaklikka yetdim va qo'llarimni yoyib, o'zimni uning ustiga tashladim. Kaklik qo'limda! U dirillaydi, quralay ko'zlarini jovdiratib, qip-qizil oyog'ini tarang cho'zadi. Pichoq Nazrullada edi, uning kelishini ham kutmay tishim bilan uning kekirdagini uzib tashladim. Shu bilan ovimiz baror olib ketdi. Yo'lda yana bitta kaklik otdik. Nazrullaning quvonchini! Nuqul yelkamga urib, "yasha, yasha, jo'rajon!" deydi yig'lamsirab. Shunday qilib, ikkita kaklikni belga osib, qishloqa qaytdik. Men to'g'ri uyga ketmoqchi edim, Nazrulla qo'ymadi.

Nazrulla oqko'ngil yigit. Sovuqdan tirishib qolgan do'stini uyiga kirgizib, isitib, qornini to'qlamasa ko'ngli xotirjam bo'lmaydi. Nazrulla do'stini uyiga kirgizdi. Uning onasi ham oqko'ngil, kambag'al bo'lsa ham, qo'li ochiq ayol edi. U darrov ko'rpacha to'shab, pechkaga o't yoqdi, qo'yarda qo'ymay go'sht qovirdi. Nazrullaning ham, do'stining ham qorni to'yib, isinib olishdi. Mehmonning endi ketish vaqti bo'lgan edi. Ammo uning oldida bir muommo bor. U birgalikda ovlashgan kakliklaridan birini berish-bermasligini, bersa Nurmat Kachalning oldidan qay ohvolda o'tishini o'yladi, bermasa do'sti va uning mehribon onasi oldidan shu holicha chiqib ham keta olmas edi. Ayni paytda u ikkilanmoqda.

Axir kakliklarning bittasini Nazrullaga berishim kerak-ku! Men bilan kun bo'yi yurdi... Lekin, bersam, unda bitta kaklik bilan kirib boramanmi? Nurmat Kachal

*ko'rsa, "ha, arang bitta otdingmi? Yoki, "Aslida, otolmabsan-u, birorta ovchidan yalinib olibsan-da", deydi. Ota-onam-chi?"*³³

Xullas, Nazrulla kakliksiz qoladigan bo'ldi. Do'sti kakliklarni belbog'iga mahkam bog'lagancha xayrlashib, tez yurib ketdi. Orqasiga o'girilib qaraganida Nazrullani bo'ynini qashib turganini ko'rdi, u do'stiga qarab turardi. O'z do'stiga kaklikalridan bermagani evaziga Nurmat Kachal ham uyi oldida ko'rinmasdi.

Nurmat Kachalning charbog'iga yetguncha bironta ham yo'lovchi uchramadi. Kachalning darvozasiga yetgach, to'xtadim-da, miltig'imning top-toza qo'ndog'ini qor bilan arta boshladim. Milini ham artdim... Yo'q, Kachal yo'q. Kerak bo'lmaganda ko'chalarda lapanglab yurardi. Hozir yo'q. Juda sovuq qotdim. Bor-e!

Aksiga olib uyiga borganida ota-onasi ham qaygadir ketgan ekan. Hech kimga kakliklarini ko'rsatib maqtana olmaganidan ularni tashlandiq shkaf ustiga tashlab o'zi uxlashga yotdi. Ertalab nihoyat ov qanday bo'lganini otasi so'rab qoldi. Bolalarga xos mag'rurlik bilan kakliklarini olib kelishga turdi, ammo ne ko'z bilan qarasaki ular kecha qo'ygan joyida yo'q edi. Hovlini axtara-axtara ularni bog'dan topdi. "Bog'ning adog'idan, loyxonadan topdim... patlarini... So'ng miltiqni o'qlab, kun bo'yi deraza yonida o'tirdim. Mushuk kelmadi."

Eng yaqin do'sti Nazrulladan qizg'angan kakliklarini mushugi yeb qo'ygan edi. U do'stining oldida juda noqulay vaziyatga tushib qolganidan uyalib yurdi. Qor tingach miltig'ini ko'tarib kaklik oviga otlandi. Nazrullani ham chaqirdi, ammo u band edi. Bugun ushlaganimning hammasi senga desa ham Nazrulla unamadi. Do'stiga qarab shunday dedi. "Nima keragi bor! Zor emasman! Gap... Gap ko'ngilda, tushundingmi?- dedi u va qorga zarb bilan sanchib uyiga kirib ketdi."

Murg'ak bolaning ko'nglidan o'tayotgan tuyg'ularni yozuvchi mahorat bilan ochib bergan. Bir sinsa, yoki lat yesa qayta tuzatib bo'lmaydigan, shisha misoli ko'ngil ham bir ozor yesa o'z holiga kelishi, avvalgiday bo'lishi qiyin. Do'sti

³³ O'sha asar, 16-b.

Nazrullani ko'ngliga ozor yetkizgan edi. To'g'ri, Nazrulla undan kaklik umidvor emas, bersa balki olmasdi ham. Ammo do'sti shuncha soviq kunda birga yurib, undan foydalanib, qaytishda esa ko'ngil uchun ham bitta kakligini bersa bo'lardi. Yoki nima maqsadda bermayotganini tushuntirsa Nazrulla uni tushunardi. Ammo u bunday qilmadi. Oqibatda do'stining ko'ngliga ozor yetkazdi, o'zi ham vijdon azobida qoldi.

Shukur Xolmirzayev hikoyalarida fasillar tasvirini berar ekan, uni o'qigan o'quvchi o'zini shu fasilda yurganday his etadi. Qish tasviri berilgan bo'lsa, xuddiki hozir qor ostida yurgandek, yoz bo'lsa quyosh taftidan isib ketayotgandek, bahor bo'lsa o'zingizni yomg'ir ostida jiqqa ho'l bo'lganidek his etasiz. Yozuvchi tabiat hodisalarini tasvirlashda o'zgacha yo'ldan borgan. Unda murakkabliklar yo'q, barchasi sodda, oddiy, muhimi tabiiy ifoda etilgan. Hikoya voqealaridan esa asarning hayotdan olingan, bo'lishi mumkin bo'lgan, hayotning bir parchasi-lavhasi ekanligi shundoqqina bilinib turadi. Quyida to'xtalib o'tadigan hikoyamiz ham shunday hikoyalar sirasiga kiradi.

Yozuvchining "Bandi burgut" nomli hikoya bola tilidan aytilgan. U o'z boshidan kechirganlarina xotirlab, bizga iloji boricha o'z holicha aytib berishga harakat qilgan. "O'shanda bir qarich jujuq edim. Teng –tushlar bilan yozda tuproq changitib, qishda qorbo'ron o'ynab, bahor kezlarida ham o'ziga xos ermaklar topib yurgan beg'am, baxtiyor chog'larim edi. Biz ayniqsa, ko'klam kezlarida to'rt-beshta bo'lvolishib, poliz paykallarida izg'ib yurardik. O'tgan yildan qolib ketgan sabzi bormi, lavlagi, kartoshka bormi- kavlab olib, qishloqning chetidagi bir g'arib dala shiyponiga borib o't yoqib uning qo'riga tapgan-tutganimizni ko'mib-pishirib yer edik. Qo'llarimiz, og'iz-burnimiz qorayib, bir-birimizdan kulib, maza qilib o'tirardik. Shunday o'tirishlarning birida havo aynib qoldi. Qop-qora, xunik uvada bulutlar tepamizni bir zumda qoplab oldi-da, xudoning qudrati bilan tuxumdek-tuxumdek do'l yog'a ketdi. Buning ustiga, osmon darz ketgandek momaqaldiraq qarsillaydi,

chaqmoq chaqadi. O, inson bunday paytda ojizligini nechog'lik aniq sezadi. Bu samoviy kuchlar qarshisida yo'q bo'lib ketadigandek sezasan o'zingni.”³⁴

Tabiat hodisalari ba'zi o'simlik va hayvonlarga zarar keltirishi ham mumkin, chunki har narsaning me'yordan ortishi yaxshilikka olib kelmaydi. Bahorda yomg'ir yog'ishidan oldin chaqmoq chaqishi bo'ladi. Endi kurtak qilib gullayotgan daraxtlar chaqmoqdan chaqnayotgan chaqin hisobiga nabud bo'lishi mumkin, ba'zan daraxtlarning butun boshli holicha yonib kul bo'lganlarini ham bahor faslida uchratish mumkin. Bunday vaziyatda barcha jonli narsalar o'zini panaga uradi. Odamlar uylariga kirib jon saqlashlari mumkin, ammo hayvonot olami nima qiladi, ular qayerga boradi? To'g'ri, ba'zi hayvonlar tog'-toshlar orasiga yashirinib jon saqlashlari mumkin, ammo hammasi ham emas. Bunday tabiat ofatlaridan qushlar ko'p aziyat chekishadi. Ularning jon saqlash maqsadida yashirinadigan joylari daraxtlarning shox-shabbalari bo'ladi. Chaqmoq ham tez uradigan narsa o'sha shox-shabbalardir. Demak, ular qushlarga boshpana vazifasini o'tayolmaydi. Hikoyada ham shu holga tushgan burgut bolasi haqida gap boradi. “Bir mahal shiypinning orqa tomonidan bir qora narsa pastlab kelib, shunday ro'paramizdagi yolg'iz o'rik shoxiga qo'ndi. Bu qanotlari ho'l bo'lib yoniga osilgan, ko'zlari olazarak burgut ekan. Do'l urgan bo'lsa kerak.”³⁵

Bu burgut bolasi edi. U juda holdan toygan, bir qarashda nobud bo'lganga o'xshardi. Ammo sinchkov bolalar uni tirikligini aniqlashdi, u nafas olardi. Burgut do'ldan aziyat chekkach, daraxt shoxiga maxkam tarmashib, undan panoh izlardi. Shox qancha egilsa ham burgut pastga, yerga tushmasdi. Har qancha qilsa han u burgutda. Shamol sekinlab do'l ham siyraklashgach burgut ho'l qanotlarini yoyib uchishga shaylandi. “Xuddi endi polapondek silkinib ho'l-shalabbo qanotlarini yonlariga tars-tars urib, parvoz qildi. Albatta, bu uchishni parvoz deb bo'lmas edi.

³⁴ Холмирзаев Ш. Танланган асарлар. III том. –Тошкент, Шарқ, 2006, 5-6.

³⁵ O'sha asar. 6-b.

Shunchaki yerga tushib ketishni istamagani va osmonga ko'tarilishga madori yo'qligi tufayli zo'rg'a qanot qoqardi – to'g'ri qishloq tamonga uchib ketdi.”

Inson zotida bir xislat bor. Bu noyob narsalarni ko'rganda o'ziniki bo'lishini istashidir. Unga ega bo'lgach nima qilmoqchi ekanligini esa doimo ham o'ylab ko'ravermaydi. Qahramonlarimiz ham hozirda hech qanday maqsadsiz burgutning ortidan quvlashmoqda. “Biz tapir-tapir qilib tashqariga chiqdik. Ixtiyorsiz bir tarzda bilardikki, bu qush bora-bora tag'in bir daraxtga qo'nardi. Unga odamlarning ko'zlari tushadi: tabiiyki, uni tutishga harakat qilishadi. Nima uchun? O'zlari ham bilmasa kerak... Ha-ha, biz ham unga ega bo'lishni istardik, xolos.”

Qishloqni izlay-izlay nihoyat burgut qayerda ekanligini topdik. U To'raqullarnikiga uchib tushgan ekan. Burgut biz boya ko'rgandan ham abgor holda edi. Hozirda u xuddi o'lganga o'xshardi. Umidlarimiz puchga chiqdi deb biz ham uning o'lganiga amin bo'lib, afsus chekdik. Ammo To'raqul uni oyog'iga ip bog'lab, uchib ketmasin deb ushlab turardi. Demak, u hali tirik. “Chetdan qarasak oramizda eng nimjon, bizga qo'shilavermaydigan tengqurimiz burgutning oyog'iga bog'langan ipni tutib turibdi. Burgut qanotlarini yozib yer bag'rlab yotibdi. tirnoqlari yerga qadalgan, yozib qutilishga harakat qilayotgani ham ko'rinib turardi.”³⁶ To'raqul ichimizda eng nimjon va o'ta kamsuqum bola edi. U ha deganda bizga qo'shilavermas, doim o'zi bilan o'zi bo'lib yurardi. To'raqulning onasi ham juda kamsuqum edi. Ular qishloqdagi eng kambag'al oilalardan. O'zlarini doim boshqalardan yiroq tutishiga balki kambag'alliklari sababdir. Onasi To'raqulni boshqa bolalarga qo'shilishini istamasdi. Chunki ular juda sho'x bo'lib, har kuni bir tashvishni orttirib yurishardi. To'raqulning onasi esa bunday mashmashalarga sira toqat qila olamasdi. Uning tashvishlari shusiz ham ziyoda edi. Bechora ona hozir ham burgutni boshimga bir balo keltirmasin deb, qayergadir sudrab ketmoqda. “To'raqulning onasi uning qo'lidan olib, burgutchani o'zi sudray ketdi. Ha, engarakdan chiqarib, soyga olib tushadigan so'qmoqqa yo'naldi. Hayriyat, yer loy-sirpanchiq edi, xolaning o'ziyam bazo'r qadam bosardi.” Bolalar qancha yalinib-

³⁶ O'sha asar. 7-b.

yolvormasin To'raqulning onasi jahl bilan burgutni yetaklab borardi. Shunda bolalarga najod kuchi kelgan misoli Yo'ldoshboy kelib qoldi. U raisning o'g'li, unga kattalar ham salom beradi. Ammo Yo'ldosh juda aqlli, otasining obro'yidan mag'rurlanmas edi. "Yo'doshboy o'zimiz tengi yigitcha edi. Qo'shni sinfda o'qirdi. Lekin juda yaxshi kiyinardi. Shunday kiyinardiki, bir-ikkita bolalar hasad qilganlaridan uning ust-boshini bir-ikki marta yirtib tashlashgan edi." To'raqulning onasi bizdan o'g'lini yiroq tutadi. Uni qarangki Yo'ldoshning ota-onasi ham o'g'lini biz bilan yurishini istamaydi. "Menga u bola yoqardi, umuman. Yaxshi o'qirdi, informatsiyaga boy edi. So'ngra undayam qandaydir, siz aytmiş "romantika"dan bor edi. Biroq rais otalari xuddi To'raqul juldurning onasidek o'g'lini biz juldurvaqalarga qo'shilib yurishini xohlamasdi: qarang, boylar ham ehtiyotkor bo'lishadi."

Yo'ldosh bilan yurib, unga biron bir zarar yetkazib, boshlari baloga qolishini istamagan ota-onalar farzandlarini Yo'ldoshga yaqin yolatishmasdi. Xullas, barcha o'z tengi bilan bo'lsa, dunyo muvozanati saqlanadigandek. Ayni paytda Yo'ldosh ham burgutga qiziqib qoldi. Xola esa unga qarshi hech narsa deya olmadi, faqat "jo'jalarimni yeb qo'yadi" deya oldi xolos. Yo'ldosh maxsus joyda boqaman, jo'jalarimgizga zarar yetmaydi deb, xolani ishontirdi. Raisning o'g'li oldida noiloj qolgan ona burgutni berishga rozi bo'ldi. "Xola chilvirni tutamlayotgandek bo'lib yirtqich qush tepasiga keldi-yu, unga qo'l tekizishga jur'at etolmay qoldi. Shunda kamina yugurib borib, burgutchaning qanotlarini yoniga basib ko'tardim. U negadir meni cho'qimadi. Aksincha, meni onasi deb fahmlagandek og'zini ochib tutdi, xolos." Bolalar burgutni o'limdan qutqarib qolishdi. Ularning oldida endi uni qanday davolash vazifasi turardi. Bu ishning ustasi Bo'zmergan edi. Bolalar unga maslahat soladigan bo'lishdi. "Bo'zmergan degan ovchi bo'lardi. Yonida bir juft tozi (it) bilan bitta gurju (kuchukvachcha)ni ergashtirib yurardi. Kuchukvachcha mushtdek bo'lgani bilan juda dovyurak, jangari bo'larkan:tulkilarning iniga bemalol kirib ketib, o'zidan uch-to'rt karra katta hayvonni qitiqlab g'ordan chiqararkan. Keyin tozi itlar uni quvib ushlasharkan. Tozilarning bo'yi mendan baland edi: or-riq, xipcha, ola-bula. Tumshug'lari uzun. Yugurganda, leopardni ham orqada qoldirarkan. Lekin qiziq-da:

tulki shayton ungayam chap berib qolarkan ba'zan. Shu chap berganda, o'qdek uchib borayotgan tozi ham burilarkan-u, epsizroq bo'lsa, dumalab, beli sinib ketarkan".³⁷

Yo'ldoshboyni do'stlari "romantik" deb atashardi. Chunki u juda g'alati narsalarga ishqiboz edi. Qiziquvchanlik bolalarga xos. Bunday yoshda har bir bola o'z dunyosi bilan yashashga intiladi. Yo'ldoshboy ham boshqa bolalarga o'xshamaydi. U boy oila farzandi bo'lishiga qaramay, oddiylikni yoqtiradi. Masalan, qishloqdagi vayrona bir ko'prikn o'zgacha ko'radi. "Bu yonda suvdan ancha baland ko'tarib qurilgandek yog'och ko'prik. Ajoyib ko'prik edi: tagida turib qarasangiz, osti shiftga o'xshab ko'rinardi. Po'stlog'i archilmagan archa xarilaridan iborat. Suvning ikki chetiga bir qavat tosh, bir qavat yog'och bosilib ko'tarilgan-da, ustiga xarilardan yotqizilgan. Keyin ulovning oyog'i tushib ke-tishi mumkin bo'lgan oraliqlarga tosh tashlab qo'yilgan. Eshak o'tsayam ko'prik lopillar, g'ijirlar edi. Hurkak hayvonlar esa, umuman, o'tolmasdi."

Yo'ldoshboylar boshqa qishloq odamlaridan har tomonlama farq qilardi. Ayniqsa, ularning yashash tarzi o'zgacha edi. "Yo'ldoshboylarning uyi ham, yashash tarzlari ham anavu qishloq odamlarining hayotidan keskin farq qilar, bamisoli soyning ikki tomoni- ikki qutub ediki, endi o'ylasam, bu go'shada o'risning dvoryani, u tomonda krestyanlari yashayotgandek edi."

Biz o'zbeklarda bir yaxshi naql bor: pul topsak uy qilamiz, yoki to'y qilamiz. Bu bir tomondan yaxshi odat. Lekin har narsani ozi yaxshi deganlaridek, har bir narsada me'yori bo'lishi kerak. Yo'ldoshlarning uyiga kirganingizda, o'zingizni xuddi muzeyga aylantirilgan saroyga kirib qolgandek his etasiz go'yo! "Mehmonxonada billur idishlar, anvoyi ichimliklar saqlanadigan bufet bo'lishi, suyanchig'i baland-taxtmonand kursilar-u uzun stol ham bo'lishi, chetda yumshoq divanu kreslolar turishi, devorlarda tabiat manzaralari tasvirlangan yirik-yirik romlarda rasmlar turishi mumkinligini ham, ont ichaman, shu yerda ko'rdim. Rais bobo ko'z yumishim kerakligini aytdi va men ko'zlarimni chirt yumdim."

³⁷ O'sha asar. 10-b.

Bunday hasham oldida o'zingizni noqulay sezib, sizdagi sharoit bu yerdagidan butunlay farqlanishidan hattoki, uyala boshlarkansiz.

Ha, haqiqatdan ham, rais bobo uyiga juda katta e'tibor bergan edi. Uydagi har bir jihoz, uyni yanada hashamdor ko'rsatib, insonni hayratga solib, o'ziga tortardi.

Yo'ldosh do'sti bilan uyiga kirgach, unga ko'zini yumishni buyurdi. Yo'ldosh do'stining hayratini oshirmoqchi emasdi. U boy xonadon vakili bo'lsa ham, boshida aytganimizdek: kamtarin, sodda, oqko'ngil bola. Yo'ldosh do'stiga qadrdon burgutini ko'rsatmoqchi edi xalos. "Qaradim-u, ko'zimning paxtasi chiqib ketay dedi. Anqayib qoldim. To'rdagi televizor ustida bir necha marotaba qabristonda ko'rganim oqish nur qandaydir qabarib-kattarib keta boshladi. Keyin u shaklga kirdi: qushga o'xshay boshladi. Shunda qushning ko'zlariga ko'zlarim qadalib qoldi.

U ko'zlar to'q qizil bo'lib, tobora alanga olayotganga o'xshar, bunga sari bu afsonaviy parrandaning shakli-shamoyili aniq ko'rinar edi."³⁸

Do'sti burgut bahonasida Yo'ldoshlarnikiga tez-tez keladigan bo'lib qoldi. Endi ularning hashamdor uyi uni hayratga sololmasdi. Chunki ular qanchalik hashamatli bo'lsa, shunchalik sovuq ham edi. Bola endi bu uyda qancha ko'p qolsa, shuncha ko'p siqiladigan bo'lib qoldi. Bu ham bolalarga xos xususiyat bo'lib, ular bir narsaga qiziqishdimi, unga ega bo'lishni istashadi, ega bo'lishgach esa, tezda zerikishadi. Endi u bu uyga faqat bir narsa uchun, u ham bo'lsa burgut bolasini tomosha qilish uchungina keladigan bo'ldi. Ayni paytda burgut ovqatga kirgan, bo'yi o'sgan, xullas, sharoitga sekinlik bilan moslashayotgan edi. Har kuni tongda, qandaydir katta burgutlar kelib, ularning tomi ustida ovoz chiqarib parvoz qilar, burgutcha esa, shundagina ularga qarab talpinar, bezovta bo'lar edi. Go'yoki ular uni olib ketishga kelgan-u, u bandilikdan qutila olmayotgandek.

Burgut bahonasidami, yo bolalarga xos narsami bu xullas, boyni o'g'li bilan do'stlashish, uning do'sti deb boshqa bolalar havas bilan qarashi hikoya qahramoniga

³⁸ O'sha asar. 14-b.

yoqib qoldi. Ammo, buni chin do'stona munosabat deb bo'lmasdi. To'g'ri, hikoya qahramoniga Yo'ldoshning boyligidan ko'ra bilimdonligi, madaniyatligi ko'proq yoqardi. Ammo ularni chin do'stlar deb bo'lmasdi.

Yo'ldoshning dadasi butunlay o'zga olam odami. U o'zidan boshqa barchaga hatto, ishchilariga ham past nazar bilan qaraydi. "Bu kishining ana shu zerikarli nigohi menga yoqmas, aytish mumkinki, bu shaxsan mendan boshqalarga, kolxozchilarga ham shunday nigoh bilan qarar, tabiiyki, ularni o'zidan yuz chandon past ko'rardi."

Qiziq, Yo'ldosh sira otasiga o'xshamasdi. Otasi qanchalik mag'rur bo'lsa, Yo'ldosh, shunchalik kamtarin edi. Ota-bolani o'xshash jihatida hayvonlarga qiziqishi edi. Shunda ham otasi hayvonlarni ichiga somon tiqilganlarini, Yo'ldosh esa tiriklarini yoqtiradi. Ular orasidagi farqning naqadar kattaligini ko'rayapsizmi?

Yaqinda Yo'ldoshboyning tug'ilgan kuni bo'larkan. Uni katta ziyofat qilib nishonlasharkan. Hikoya qahramoni esa bu gaplarni eshitib unchalik ham tushunmadi. Chunki ularda tug'ilgan kun nishonlanmasdi. To'g'rida, har kim sharoitidan kelib chiqib kun o'tkazadi.

Inson zotini yashash sharoiti yaxshilanavergach, uning qiziqishi ham o'sib boradi. Hozirda rais boboning uy muzeyidan joy olgan qushlaru hayvonlarni ko'rib, uyning hidi qanchalik yomon bo'lmasin, chiqqingiz kelmaydi. Hayvonlarni qotirish uchun naftalindan foydalanishar, uning hidi esa juda o'tkir bo'ladi.

Bu yerdagi hozircha yagona jonli jonzot, o'sha, do'l urib jarohatlagan burgutcha edi. Yolg'izlikdan uning ahvoli, kundan-kunga yomonlashardi. Rais bobo uni ham, xonadagi boshqa qushlar qatoriga qo'shmoqchi, ya'ni qotirmoqchi edi. Yo'ldosh bunga qarshi. Do'sti ham, unga va burgutga qandaydir yordam qilish kerak degan fikrga borib, o'ylay boshladi. U rais boboga yoqadigan gap topdi. Ya'ni qafasni ochib qo'yishsa, oyog'i bog'liq qush uchib-uchib yana qaytib kelishi to'g'risida. Bu fikr ota-bolaga ma'qul keldi. Qafasning eshigi ochildi.

*Ertasi tomosha boshlandi. Qishloq bo'yicha tom boshiga chiqib olib, rais boboning qasri tomonga qaramagani yo'q edi desam bo'ladi. O'zingiz o'ylab ko'ring: yam-yashil qir ostidagi zumratdek o'tloq o'rtasida qat ko'targan oppoq imorat ustida-tepasida bir bahaybat qush aylanayotir. Shunday tez aylanardiki, yiqilib tushmaganiga hayron qolasan!*³⁹

Bandi burgutning ovoz chiqarib uchishini ko'rgan yaqin atrofdagi burgutlar uchib kela boshlashdi. Bu holatni, yordamga muxtoj kishining chaqirig'ini eshitib, uni qutqarishga kelayotgan, tanish-notanish odamlarga o'xshatish mumkin. Buni qarangki, qushlar o'rtasida ham mehr-oqibat bor ekan.

Tag'in: bir xil balandlikda, taxminan bir arqon bo'yi tepada charx urmoqda yovvoyi-yirtqich qush! O, ana qarang endi! Tog'ning bag'irlaridan pistirma ichida yotgan "mig" samaliyotlari kabi sonsiz burgutlar uchib kela boshladi. Ular rais boboning uyi tepasiga yetgach, sekinlab aylanishga tushdilar. Ular balandda. Tutqin-oyog'ida kapron zanjiri bor burgut esa pastda... U titrab, chinqiroq ovoz chiqaradi. Tepadagilar unga jo'r bo'lishib, ayrimlari bandining yonidan uchib o'tishadi. Uchib o'tishadi-yu, bu "yigitcha"ning ne ko'yga tushganiga aqlari yetmaganday yana balandlab ketishadi va zorlanib ovoz chiqarishadi.⁴⁰

Bandilikdan ozod bo'lgan misoli burgut do'stlari bilan rosa parvoz etdi va anchadan beri uchmagani uchun, holdan toydi shekilli, qafas tomon pastlay boshladi.

Bir mahal shunday aylanishga berilib ketdiki, tuyqus qafasga urildimi yoki xizmatkor ipdan qattiq tortdimi xuddi o'q tekkandek bir ag'darilib pastlay boshladi. Keyin uy atrofida xuddi ipga bog'langan ajabtovur varrak kabi aylana-aylana ayvonga tortildi.

Uy ichida naftalin yordamida qotirilgan burgut hali ham joyidan jilmay turardi.

³⁹ O'sha asar. 21-b.

⁴⁰ O'sha asar. 23-b.

Shubham yo'qki, toliqqan, ip tortilganda biron yeri balki shikastlangan burgut yana zal to'riga ko'z tikib qolgan. Balki endi qushning vajohati burungidan ham battardir: axir, o'z makonida parvoz etib keldi. Anavi notavon esa hamon uyning to'rida qotib, ko'zlari lovillab turibdi.

Yo'ldoshboyning tug'ilgan kunini birga nishonlash uchun, taklif etilgan mehmonlar kelishdi. Hikoyachimiz, tug'ilgan kunni qanday bo'lishini ko'rib, ichida tug'ilgan kun deganlari shunaqa bo'larkanda deb o'yladi. Yo'ldoshboyning tug'ilgan kuni munosabati bilan chorlangan mehmonlar, ya'ni "ayibdor"ning padari buzrukvari-yu volidaiy muhtaramasi, tag'in ikkita feldsher bilan Yo'ldosh o'qiydigan sinf rahbari va biz jujuqlar- he stulda to'g'ri o'tirishni bilmaydigan, ayrimining oyog'i tagiga qatlab olingan qishloq shumtakalari davrasida burgutning ilk bor uzun ipda uchurilgani hikoya qilinardi.

Mehmonlar ham, mezbonlar ham, nima haqida suhbatlashishni bilmay barcha bor e'tiborini burgutga qaratgan edi. Shunda Yo'ldosh, tug'ilgan kuni ekanligidan foydalanib, bugungi kunda nima desam ham uydagilar rozi bo'ladi, degan bolalarga xos xayollarga borib, ichida o'ylab yurgan gapini otasiga aytishga jur'at topa oldi. Kelgan mehmonlar ham uni qo'llab-quvvatlashdi. Rais bobo ularning gap-so'zlarini be'etibor eshitib turdi. Chunki Rais bobo burgutni ozod qilishni mutlaqo istamas edi.

*Rahimdillik - yaxshi narsa dedi , sizlarning yoshlaringda bo'lganimda men ham shu fikrni aytgan bo'lardim, ehtimol... Biroq yigitchalar, bilib qo'y inglarki, bizning falsafamizda hamma narsa Inson uchun deyiladi. Tabiat ham, gullar ham, mana shu burgut kabi qushlar ham... Ulardan zavqlanishimiz lozim. Ana shunig uchun ham bizda zooparklar bor, qo'riqxonalar bor biz noyob parrandalar va kamyob hayvonlarni asraymiz. To'g'ri ularning o'rgatilgan bo'lishi shart emas.*⁴¹

Rais bobo to'g'ri gapirayotgan edi. Ammo o'zining qilayotgan ishlari bu fikrining aksi edi. Chunki zooparku-qo'riqxonalarning borligi bilan noyob qushlarni, hayvonlarni kimyoviy moddalar yordamida, jonsiz holtda uyda saqlashning

⁴¹ O'sha asar. 25-b.

o'rtasida anchagina tafovut bor. Hayvonot bog'larida jonivorlar erkin, tabiat qo'ynida bo'lishadi. Ularni yashashi va ko'payishiga sharoitlar yaratilgan. Rais bobomiz esa, noyob hayvonlarni faqat o'ziniki bo'lishini, ularga faqat o'zi xo'jayinlik qilishni o'ylaydi. Yo'ldosh dadasiga qancha yalinib-yolvormasin, otasi tugal bir fikr aytmadi.

O'zingni bosib ol. Mehmonlar bor, jo'ralariningniyam birinchi marta kelishi, konsert ko'rsatma, o'g'lim. Ha, bir gap bo'lar. Undan ko'ra taomga qaranglar, de. Yeb-ichib o'tiringlar, keyin ana burgutingni uchir. Onang bir tasmaga: "o'g'lim tug'ilgan kuning muborak!" deb yozib qoyibdi. Gulnazarni chaqir, tasmani burgutning oyog'iga bog'lasin. Keyin uchiringlar.

Qizil tasmani burgut oyog'iga maxkam bog'lab, uni ko'kka parvoz qildirdik. U samoda parvoz etar, pastdagilar bu go'zal manzaraga mahliyo bo'lib qarab turardik. Ammo burgut ichidan nima o'tayotganini hech kim bilmasdi.

*Lekin sal vaqt o'tmasdan tomoshaning pachavasi chiqdi: yirtqich qush ortidan ilon kabi ergashgan narsani payqab qolib qo'rqib ketdi shekilli, shunday uchishga-aylanishga tushdiki, matori buzilgan "mig"dan farqi qolmadi. Yoki shamol oqimiga tushib qolgandek harakat qila boshladi: dam pastlab ketadi, dam yuqorilab va birdan to'xtab teskari tamonga uchadi.*⁴²

Burgutni hozirgi ahvolini ko'rgan odam uni kasal, biron joyi lat yegan deb o'ylaydi. Aslidachi, aslida u qancha parvoz etmasin oyog'iga bog'langan qizil tasma ilon kabi ta'qib qilaverishi, u hech qachon bundan qutila olmasligi, bandiligi uni g'amga botirgan edi. U bandi edi. Mudom ozodlikda, keng samoda uchub yurgan qush hozirda oyog'i bog'liq bir ahvoldagi qush. U sal o'ziga kelgach yana parvoz qila boshladi. Endilikda burgut hech narsa bo'lmaganday ohistalik bilan bir me'yorda samoda uchardi.

U endi ohista uchar edi. Boyagi charchog'idan asar ham yo'q. Ko'kda bir oz to'xtagan bo'lib, titroqli ovoz ham chiqardi. Boyagi burgutlar yana allaqayoqlardan

⁴² O'sha asar. 28-b.

yetib kelib, tag'in balandda aylana boshlashdi. Biz ixtiyorsiz bir tarzda uning osmonga intilishini kutardik. Lekin u intilmas, shu balandlikda uchishga ham rozi bo'lgandek.

Yo'ldoshboy mehmonga kelgan do'stlari bilan birga burgutni uchirardi, qo'lida oyisi tikkan tasma. Ana shunda anqayib-angrayib, quvonib-suyinib turgan chog'imizda shunqor, yo'q –qarchig'ay, unday emas –burgut yana ayvon ichini razvetka qilganday uchib o'tdi-yu, birdan shitob bilan aylana ketdi. U aylanayabdi, bizning ham boshimiz aylanadi. Xudo ursin, ko'zim tinay deganda, uni yana ha demak, oxirgi marta tepamda ko'rdim, xolos.

U o'zining oxirgi uchishidan ko'zlagan maqsadini amalga oshirmoqchi ekanligini biz o'ylab ham ko'rmagan bir paytda, u shunday vajohat bilan uchdiki, bu uning so'nggi uchishi edi.

*Mehmonxonaga o'zini urdi va ichkarida taqir-tuqur bo'lib ketdi. Ichkariga kirsak, fosfor burgut chil-chil sinib ketgan bizning ovunchoq esa televizorning oyog'i ostida qanotlarini yozib jonsiz yotibdi.*⁴³

Qush bu uyga kelgan kunidan boshlab fosfor burgutning erkinlikda turishiga qaramay nega parvoz etmay bir joyda turishiga g'ashi kelib yurganligini, agar o'zida bu imkoniyat bo'lgaida bir zum ham to'xtamay baland-balandlarga parvoz qilishi haqida o'ylab yurgan ekanda, degan xulosaga borish mumkin. Do'l urgan burgut ozodlikda turib bandilardek yshagandan, bandilikda bo'lib ozodlik uchun kurashishni, hatto bu yo'lda kerak bo'lsa o'lishga ham tayyorligini ko'rsatdi. U fosfor burgutni ham o'zini ham nobud qildi. Yo'ldosh burgutdan ayrilganiga ishongisi kelmay xiqqillab yig'lardi. Rais bobo esa burgutni bu holatidan ichida mamnun edi, chunki endi undan ajoyib cho'chila qilish mumkin edida. Ammo fosfor burgutini chilparchin bo'lganini ko'rib unga achindi. Chunki endi uni tiklab bo'lmaydi. Yo'ldosh burgutni olib do'stining uyiga bordi. U burgutni cho'chila bo'lishini istamasdi. Do'sti unga qushni ko'mishni maslahat berdi. Bu fikr Yo'ldoshga ham

⁴³ O'sha asar. 26-b.

ma'qul bo'ldi. Ular qushni eski qabristonga, hech kim obod qilishni istamaydigan joyga ko'mishdi.

*Atrofini sim to'r bilan o'rash ham odamlarning xayoliga kelmaydigan, to'g'rirog'i, bu holni xayollaridan chiqarishgan, yanada to'g'risi, bunga ruxsat etishmaydigan, bundan ham to'g'risi –obod qilishni o'ylagan odamni qishloqdan badarg'a etilishiga sabab bo'ladigan qabristonga yetib borganimda Yo'ldoshboyning yonida To'raqul, yana bir-ikki bola bor edi.*⁴⁴

Bu qabristonda ozodlik uchun kurashgan, ammo bosmachi tamg'asi ostida bo'lgan vatandoshlarimiz qabri bor edi.

*Qabristonda shahid o'lganlarning, ya'ni huv grajdanlar urushi davrida Ozodlik, Mustaqillik yo'lida kurashib halok bo'lgan “bosmachi”lardan ham birnechasining qabri bor, xalq uni pinhon tutar, biz jujuqlar ham birovga og'zimizdan chiqarmas edik: ularning belgisi –bir quloq cho'pu yarim gaz churuk bo'z edi.*⁴⁵

Burgut ham ozodlikka erishishning o'limdan o'zga chorasini topolmadi. U bandilikdan ko'ra o'limni afzal bildi. Endi u ozodlik uchun kurashgan vatandoshlarimizning qatorida, ular bilan birga yotadi.

Xullas Shukur Xolmirzayev o'ndan ortiq hikoyalarida bola obrazini yaratgan. Bolalarga xos bo'lgan ruhiy kechinmlalar, hissiyotlar, ularni larzaga solgan hodisa va voqealar bola tilidan ifoda etilgan.

⁴⁴ O'sha asar. 27-b.

⁴⁵ O'sha asar. 28-b.

X U L O S A

XX asr o'zbek adabiyotida o'ziga xos uslubga ega bo'lgan ijodkorlardan biri Shukur Xolmirzayev sanaladi. Shukur Xolmirzayev o'zbek adabiyotiga 60-yillarda kirib keldi. Ilk hikoyalari bilanoq o'quvchilar qalbini zabt etdi. U yaratgan hikoyalar Abdulla Qahhor e'tiboriga tushdi. Keyinchalik romanchilikka ham qo'l urdi.

Shukur Xolmirzayev hikoyalaridagi obrazlarga alohida ahamiyat qaratdi. Ularni samimiy va tabiiy qiyofada aks ettirishga intildi. U yaratgan hikoyalarda ayniqsa bola obrazi alohida ahamiyat kasb etdi.

Shukur Xolmirzayev o'zbek hikoyachilik san'atining ustози Abdulla Qahhordan keyin yangi, yuqori bosqichga ko'targan yozuvchilardan biridir. Uning hikoya, qissa va romanlari tesha tegmagan voqealarga bag'ishlanganligi, xarakterlarga boyligi bilan ajralib turadi.

Shukur Xolmirzayev o'ndan ortiq hikoyalarida bola ruhiyatini yoritishga harakat qildi. Bu obraz o'ndan ortiq hikoyalarda aks etgan bo'lsa-da, bir-birini takrorlamaydigan xarakterlar galeriyasi bo'lib gavdalandi.

Shukur Xolmirzayev o'ziga xos shaxsiy badiiy uslub sohibi sifatida taqlidchilikdan, biryoqlamalikdan, bayonchilikdan qochadi, so'zga xasis bo'lsada, fikrini o'quvchiga to'la va yorqin etkazishga erishadi. Biroq ba'zan uning asarlari tugallanmagandek taassurot uyg'otadi. O'quvchi asar davomini kutadi. Qahramonlar portretini chizmaydi, asosiy e'tiborini xarakter yaratishga qaratgandek ko'rinadiki, bu o'quvchini o'ylashga, chuqur mulohaza qilishga majbur qiladi. Asar qahramonlari ustidan chiqarilgan hukm o'quvchi e'tiboriga havola etiladi. Har bir o'quvchi qanday asar o'qimasin o'qigan asar qahramonlarining taqdirini o'zi xohlaganidek bo'lishini istaydi.

Adibning "Qorbobo keladi" hikoyasida bola obrazi ruhiyati ifoda etilgan. U bola bo'lganda ham juda sodda, ishonuvchan, qalbi pok, orzu qilgan narsalarini o'zi xohlaganday tasavvur qiladigan va shunga o'zi ham ishonadigan obraz sifatida tasvirlangan.

Yozuvchining “Bahor” hikoyasida esa tog`li hududlarda yashovchi, qalbida ilk muhabbat kurtak otayotgan va bu ayni bahor faslida daraxtlar uyg`onib, barg yozayotgan fasl tasvirlanib hikoyaga yanada joziba bergan.

“*Jo`raboshi*” hikoyasi o`zlarini ko`chaning “xo`jayinlari” deb, biluvchi bir guruh, har xil yoshdagi bolalarning hayotidan olingan haqqoniy lavhadir. “Ko`cha xo`jayinlari” ning boshlig`i Habibulla ismli bola bo`lib, u harbiy xizmatga ketish arafasida o`z “ishchilari” bilan xayrlashishi, ularga vazifalar tayinlashi arafasida ulardagi ruhiyatning o`zgarishi orqali bolalar hayotini tasvirlaydi. Bolalik, o`smirlik, o`spirinlik davri va ular bilan xayrlashuv sifatida ifoda etiladi.

Adibning “*Nasib etsa*” hikoyasida haqiqatgo`y bola to`g`risida gap boradi. Elyor Bo`ritosh opasini juda yaxshi ko`radi. U ishdan kelgan zahoti bola uning atrofida girdi kapalak bo`lib o`ynar, u bilan sihatlashar edi.

Bo`ritoshni qishlog`idan Berdiyori yaqinda olib qochib kelganligi uchun Elyor unga oilasi, qishlog`i to`g`risida o`zini qiziqtirgan savollarni beraveradi. Shu orqali bola ruhiyati asta-sekinlik bilan ochila boradi. Adib bola ruhiyati orqali inson hayotidagi o`zgarishlarning ta`sirini ushbu hikoyada tasvirlaydi va buni uddasidan chiqadi.

Shukur Xolmirzayev hikoyalarida bola ruhiyatini ochar ekan ko`proq ularni qiziqarli holatlarda aks ettirishga harakat qiladi. Bunday paytda yozuvchi bolalar hayotida yuz berishi mumkin bo`lgan voqea – hodisalarga e`tiborini qaratadi. Masalan, maktab tasvirini berish orqali unda bolalarning maktab yoshiga xos bo`lgan jihatlarini ochishga harakat qiladi, qishloq hayotidan lavhalar keltirish orqali esa, tabiat va bola ruhiyatidagi o`xshashliklar yoritiladi. Bolalar turmush tarzining ko`p qismini egallab turadigan jarayon bu-o`yin. Yozuvchi hikoyalarida o`yin epizodidan foydalanar ekan, keltirilgan o`yinining qanday o`ynalishi, o`ynalish qonun-qoidalari haqida ham gapirib o`tadi. Bundan yozuvchining o`zbek milliy o`yinlari turkumiga kiruvchi o`yinlaridan anchagina yaxshi xabardor ekanligini bilib olamiz.

Yozuvchi hikoyalarida murg'ak bolaning ko'nglidan o'tayotgan tuyg'ularni mahorat bilan ochib bergan. Ko'ngil oynasi bir sinisa, yoki lat yesa qayta tuzatib bo'lmaydigan, shisha misoli. Ko'ngil bir ozor yesa o'z holiga kelishi, avvalgiday bo'lishi qiyin. Shukur Xolmirzayev bola obrazini yaratar ekan bu jihatlarni ham yoddan chiqarmaydi va uni mahorat bilan ko'rsata oladi.

Xullas, Shukur Xolmirzayev o'ndan ortiq hikoyalarida bola obrazini yaratgan. Bolalarga xos bo'lgan ruhiy kechinmlalar, hissiyotlar, ularni larzaga solgan hodisa va voqealar bola tilidan ifoda etilgan.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

I. Ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar:

1. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. –Тошкент: Ўзбекистон, 2008 йил.
2. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. –Тошкент: Шарқ, 1998 йил.
3. Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. –Тошкент: Ўзбекистон, 2012 йил.

II. Ilmiy adabiyotlar :

1. Адабий турлар ва жанрлар. I жилд. –Тошкент: Фан, 1991 йил.
2. Адабиёт назарияси. 2 томлик. –Тошкент: Фан, 1978 йил.
3. Бобоев .Т. Адабиётшунослик асослари. –Тошкент:Ўзбекистон, 2002 йил.
4. Bugungi o`zbek adabiyotining ba`zi muammolari. –Samarqand: SamDU, 2013-yil.
5. Дониёрова Ш. Ш.Холмирзаев ҳикояларининг бадиий-услубий ўзига хослиги. –Тошкент: 2000 йил.
6. Каримов Н ва бошқалар. XX аср ўзбек адабиёти тарихи. –Тошкент: Ўзбекистон, 1998 йил.
7. Каримов Н. XX аср ўзбек адабиёти манзаралари. –Тошкент: Ўзбекистон, 2009 йил.
8. Мирзаев С, Шермухаммедов С. Ҳозирги замон ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 1993 йил.
9. Мирвалиев С, Шокирова Р, Ўзбек адиблари. –Тошкент: Фан, 2007-йил.
10. Норматов У. Ижод сеҳри. –Тошкент: Шарқ, 2007 йил.
11. Норматов У. XX аср адабиёти. –Тошкент: Шарқ, 2007 йил.
12. Норматов У. Қалб инқилоби. –Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1986 йил.

13. Норматов У. Янги ўзбек адабиёти. –Тошкент: Университет, 2007 йил.
14. Расулов А. Бадиийлик – безавол янгилик: Илмий-адабий мақолалар, талқинлар, этюдлар. –Тошкент: Шарқ, 2007 йил.
15. Сойимов Б. Улуғ ватан уруши даври ўзбек адабиётининг жанр хусусиятлари. –Тошкент:Фан, 1984 йил.
16. Султонов И. Адабиёт назарияси. –Тошкент: Ўқитувчи, 1980 йил.
17. Тошпўлатов А. Новелла жанри. –Самарқанд: СамДУ, 2013 йил.
18. Умуров Ҳ. Адабиёт назарияси. –Тошкент: Шарқ нашриёт – матбаа аксиядорлик компанияси бош таҳририяти, 2002 йил.
19. Умуров Ҳ. Адабиётшунослик назарияси. –Тошкент: 2004 йил.
20. Умуров Ҳ. Бадиий психологизм ва ҳозирги ўзбек романчилиги. – Тошкент: 1983 йил.
21. Умуров Ҳ. Таҳлил санъати. –Тошкент: Фафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1978 йил.
22. Худойбердиев Э. Адабиётшуносликка кириш. –Тошкент: Ўқитувчи, 1995 йил.
23. Шарафиддинов О. Ижодни англаш бахти. –Тошкент: Шарқ, 2004 йил.
24. Шарафиддинов О. Довондаги ўйлар. –Тошкент: Маънавият, 2010 йил.
25. Шукуров Н. Адабиётшуносликка кириш. –Тошкент:Ўқитувчи,1979 йил.
26. Шукуров Н. Услублар ва жанрлар. –Тошкент: Фафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1973 йил.
27. Қўшжонов М. Адабиётнинг қўш қаноти. –Тошкент: 1978 йил.
28. Қўшжонов М. Моҳият ва бадиат. Адабий-танқидий мақолалар. – Тошкент: Фафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1977 йил.
29. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. –Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq me'rosi nashriyoti, 2004-yil.
30. Ҳотамов Н, Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. –Тошкент: Ўқитувчи, 1983 йил.
31. Ҳомидова М. Бир образда икки қиёфа талқини. //Ўзбек тили ва адабиёти , 2001-йил, № 4.

32. Ғофуров И. Ўттиз йил изҳори. –Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987 йил.
33. www.ziyo.uz
34. www.ziyouz.com kutubxonasi

III.Badiiy adabiyotlar:

1. Холмирзаев Ш. Танланган асарлар. I том. –Тошкент: Шарқ, 2003 йил.
2. Холмирзаев Ш. Танланган асарлар. II том. –Тошкент: Шарқ, 2005 йил.
3. Холмирзаев Ш. Танланган асарлар. III том. –Тошкент: Шарқ, 2006 йил.
4. Холмирзаев Ш. Танланган асарлар. IV том. –Тошкент: Шарқ, 2007 йил.
5. Ҳошимов Ў. Танланган асарлар. III том. –Тошкент: Шарқ, 2011 йил.

MUNDARIJA

	Kirish.....	3
	Asosiy qism.....	6
I BOB	Shukur Xolmirzayev ijodi va O`zbek adabiyoti	6
II BOB	Adib hikoyalarida bola ruhiyati	18
	Xulosa.....	64
	Adabiyotlar ro'yxati.....	67